Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

# Postda
# На посту

2023-yil
13-iyul
payshanba

№ 28 (4618)

O‘zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz






**Mamlakatimizning markaziy qismida joylashgan Sirdaryo viloyati 1963-yil 16-fevralda tashkil topgan.**

**Hududiy jihatdan Qozog‘iston va Tojikiston Respublikalari hamda Toshkent va Jizzax viloyatlari bilan chegaradosh. Tarkibida 8 ta tuman, 3 ta shahar hamda 232 ta mahalla mavjud.**

***Sirdaryo viloyati ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan xodimlar faoliyati bilan gazetamizning 8–9-sahifalarida tanishasiz.***





■ Қорақалпоғистон Республикаси

# ҲОКИМ БИЛАН УЧРАШУВ

**Хўжайли туман ҳокими Ж. Ермашев тумандаги мавжуд 28 та маҳалланинг профилактика инспекторлари билан учрашди.**

Унда «Обод ва хавфсиз маҳалла» тамойили доирасида туман ҳудудида жамоат тартибини сақлаш, ҳуқуқбузарлик ва жиноятчиликнинг олдини олиш юзасидан амалга оширилаётган ишлар муҳокама этилиб, қатор кўрсатмалар берилди.

Шунингдек, профилактика инспекторларининг ўзлари хизмат олиб бораётган ҳудудларда тинчлик-осойишталикни асраш, мавжуд ҳолатни янада яхшилаш бўйича таклиф ва фикрлари тингланди.

**Ўз мухбиримиз.**





■ Ёшлар – келажак бунёдкори

# «USTOZLAR ISHONCHINI OQLAYMAN»

**– Inson ezgu maqsadlari sari astoydil intilsa, albatta, ularga erisharkan, – deydi leytenant Dilshoda Mingboyeva. – Men IIV Jizzax akademik litseyini a'lo baholarga tamomlab, qo'limga imtiyozli diplom olganimda, kelgusida vazirlik Akademiyasiga o'qishga kirib, ushbu oliy ta'lim dargohini ham imtiyozli diplom bilan bitiraman, deya niyat qilgandim. Bugun o'z-o'zimga bergan so'zimning ustidan chiqqanimdan xursandman.**

Dilshodaning quvonganicha bor. U joriy yil IIV Akademiyasining kunduzgi ta'lim yo'nalishi «Tergov faoliyati» ixtisosligini imtiyozli diplom bilan tamomladi. Endi ta'lim dargohida olgan bilimlarini Jizzax viloyati ichki ishlar organlari tergov xizmati faoliyatida qo'llab, huquq-tartibot posboni sifatida mehnat qiladi.

– Qizim bilan faxrlanaman, – deydi Kamol Shodmonov. – Axir, ota uchun farzandi yutuqlarining guvohi bo'lishdan ortiq baxt yo'q. Yashirmayman, o'quvchilik vaqtida ichki ishlar organi xodimi, to'g'rirog'i, tergovchi bo'laman, deganida yuragimda bir hadik bo'lgan. Ammo Dilshoda tanlagan yo'lida shu kunga qadar sobit davom etmoqda. Men uning bu yo'li ravon bo'lishiga, el-yurtga nafi tegishiga ishonaman.

Hayotda to'g'rilik, halollik bilan yahayotganlarning turmushi tinch va farovon bo'ladi. Ammo, besh qo'l barobar bo'lmaganidek, oramizda to'kis hayot orzusida qing'ir ko'chalarga kirib qoladiganlar yo'q emas. Aytmoqchi bo'lganimiz, tergovchi shunday vaziyatlarda kasbiy ko'nikmalariga tayanib, ziyrak nigohlari bilan voqelikka qonun nuqtai nazari bilan baho beruvchi adolat posbonidir.

– Tanlagan kasbimning murakkabligi ham shunda-da, – deya so'zlarimni tasdiqlaydi leytenant Dilshoda Mingboyeva. – Tergovchi qonun hujjatlari bilimdoni bo'lishi bilan birga, o'ziga ishonib topshirilgan jinoyat ishini pishiq-puxta ko'rib chiqishi uchun ko'plab sohalarga oid tushunchalarga ega bo'lishi kerak. Ayni paytda Akademiyada olgan bilimlarimni bevosita amaliyot bilan uyg'unlashtirish ostonasida turibman. Ilk xizmatimni boshlashimda ustozlarim – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist, iste'fodagi polkovnik Alisher Sharofiddinov, podpolkovnik Baxtiyor Murodovdan o'rganganlarim asqatishiga ishonchim komil. Ularga munosib shogird bo'lishga harakat qilaman.




**Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.**




# DAVRLARNI YUZLASHTIRGAN KITOB

**Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV hamda shahar-tuman IIBlari tarixiga oid 17 ta kitob nashrdan chiqdi.**

Mazkur kitoblarda ichki ishlar organlarida uzoq yillar samarali faoliyat yuritgan faxriylar, tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashishga munosib hissa qo'shgan fidoyi xodimlarning ibratli hayoti va faoliyati, hozirda ichki ishlar organlarida xizmat qilib kelayotgan xodimlarning faoliyati, davlat mukofotlariga sazovor bo'lgan xodimlar to'g'risida ma'lumot va fotosuratlar o'z aksini topgan.

Bundan tashqari, kitoblarda mustaqillik yillarida ichki ishlar organlarida amalga oshirilgan islohotlar, xodimlarga yaratilgan sharoitlar, sohada yuz bergan ko'plab o'zgarishlar ham tilga olingan.

— Albatta, kitoblarni nashrga tayyorlash oson kechmadi. Kerakli ma'lumotlarni arxivlardan, tarixchilar, shuningdek, soha faxriylarining xotiralari hamda «Tinishliq saqshisi» gazetasida e'lon qilingan maqolalardan foydalanildi, — deydi vazirlikning MMI va KBTX bosh inspektori, mayor Azamat Darushov, — Chop etilgan kitoblar soha xodimlari hamda bo'lajak osoyishtalik posbonlari uchun muhim va tarixiy qo'llanma bo'lib xizmat qilishiga shubha yo'q.

**O'z muxbirimiz.**
*Qoraqalpog'iston Respublikasi.*

*Қўшқанотлар*

# ХИЗМАТДАН ҚАДР ТОПАЁТГАН ЖУФТЛИК

**Майор Жавлон Иноятов Тошкент шаҳар ИИББ ЙҲХБ ЙПХ бригадаси Кузатув ва оммавий тадбирлар даврида йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш махсус батальони 1-сафарбар гуруҳи йўл-патруль хизмати катта инспектори вазифасида хизмат қилади.**

Қаҳрамонимизнинг отаси истеъфодаги подполковник Миржалил Иноятов ҳам ИИБ ЙҲХБда масъул лавозимларда фаолият юритган. Эндиликда унинг касбини икки ўғли давом эттирмоқда. Жавлоннинг акаси Жаҳонгир Иноятов ЙҲХБ ЙПХ бригадаси 3-батальони ЙПХ катта инспектори лавозимида хизмат қилади, унвони майор.

Буни қарангки, Миржалил ака оиласининг риштaлари яна бир осойишталик посбони бош бўлган оила билан боғланди. Жавлон узоқ йиллар ИИБ ЙҲХБ ходими бўлиб ишлаган, подполковник Холмат Бегматовнинг қизи Нилуфархон билан турмуш қурди. Холмат ака ҳозир пенсияда, фарзандлари ва набираларининг камолини кўриб, кексалик гаштини суриб юрибди. У ҳар гал дуога қўл очганида, юртга тинчлик, фарзандлари ва набираларининг камолини ҳамда уларга узоқ умр тилайди.

Нилуфар турмушга чиққан пайтда Тошкент тиббиёт академияси талабаси эди. Ҳам турмуш ташвишлари, ҳам таҳсил олишни бирдек олиб бориш мушкуллигини яхши англаган қайнонаси Муҳаррамхон опа унга яқиндан ёрдам берди. У киши яқиндагина туғилган набираси Давронжонга қараб турар, келини ўқишдан келгач, ўзининг қадрдон жамоаси томон ошиқарди. Дарвоқе, Муҳаррамхон опа ҳам ИИВ Марказий поликлиникасида ишлаган. Кейин бирин-кетин Мардонжон ва Эъзозахонлар ҳам дунёга келишди. Улар ҳам шу тариқа тетапоя қила бошлашди.

Нилуфархон ўз соҳасини янада мукаммал эгаллаш учун Тошкент врачлар малакасини ошириш институтида ҳам таҳсил олди. Ундаги ички ишлар органлари соҳасига бўлган қизиқиш кучлилик қилиб, ҳужжатларини Тошкент шаҳар ИИББга



топширди. 2018 йилдан Бош бошқарма тиббиёт бўлимида шифокор-офтальмолог сифатида осойишталик посбонларининг саломатлиги йўлида хизмат олиб бормоқда, унвони капитан.

Ҳам шифокор, ҳам ички ишлар органи ходими бўлиш улкан масъулият талаб қилади кишидан. Оилада эса турмуш ўртоқ, фарзандлар тарбияси ва рўзғор юмушларини ҳам елкасига олган аёл. Баъзилар Нилуфарга дўхтир дея мурожаат қилса, айримлар уни ички ишлар органи формасида кўриб ҳаваси келади.

**Инсон, айниқса аёл, оиласи тинч, фарзандлари соғлом бўлса, кўнгли хотиржам бўлиб, ўзини тўла тўкис севган ишига бағишлайди, меҳнатидан қадр топади. Шунинг ўзи катта бахт эмасми?**

Улар билан суҳбат қурар эканмиз, Жавлон ҳам, Нилуфар ҳам турмуш қийинчиликларидан нолимади. Аммо уларнинг самимий суҳбатларидан илғаш қийин эмаски, паст-баландликлардан иборат бўлган бу ҳаётда турмуш ташвишларининг барчасини биргаликда енгиб ўтишмоқда, сабр қилиб, фарзандлар камоли учун ҳаракат қилишмоқда.

Биз тинч, осуда ва янада обод бўлаётган мамлакатда яшаяпмиз. Бунда Иноятовлар каби осойишталик посбонларининг ҳам ўз ҳиссаси бор.

**Сарвар СОБИРОВ,**
**ўз мухбиримиз.**
*Тошкент шаҳри.*

*Ҳалолликни шиор қилган ходимлар*

# АЙБИНИ ХАСПЎШЛАМОҚЧИ ЭДИ...

**Жорий йилнинг 29 июнь куни Қашқадарё вилояти Шаҳрисабз шаҳар Ички ишлар бўлими йўл-патруль хизмати инспектори, катта сержант Суҳроб Норимов хизмат тақсимотига кўра, шаҳар бўйлаб тунги хизматга жалб қилинганди. Шу куни 03:15 ларда «ВАЗ 2107» русумли автомашина Ипак йўли кўчасида светофорнинг қизил чироғида ҳаракатланганлиги учун ҳайдовчига тўхташ ишорасини кўрсатганда, у бўйсунмасдан, автомашинани бошқариб кетди. Инспектор М-39 автомобиль йўлида ҳайдовчини ҳамкасблари билан бирга тўхтатди.**




Суҳбат давомида ҳайдовчи – Китоб тумани «Халқлар дўстлиги» маҳалласида яшовчи фуқаро Ш.М.нинг оғзидан спиртли ичимлик ҳиди келганлиги ва автомашинани тегишли ҳужжатларсиз бошқариб юрганлиги аниқланди. Ҳайдовчи нарколог шифокор кўригидан ўтказилиб, унга нисбатан Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг тегишли моддаси бўйича маъмурий баённома расмийлаштирилди. Автомашина эса вақтинчалик жарима майдонига жойлаштирилди.

Эртаси куни йўл-патруль хизмати инспекторининг ҳузурига келган Ш.М. автомашинасини жарима майдонидан чиқариб бериш ва чора кўрмаслик эвазига 7 миллион сўм пулни пора тариқасида таклиф қилди. Катта сержант Суҳроб Норимов пора бериш ва олиш жиноят эканлигини ҳар қанча тушунтирса-да, фуқаро тушунмади.

Фуқаро Ш.М. катта сержант С. Норимовга ваъда қилинган пулни берган вақтида ҳуқуқ-тартибот органлари ходимлари томонидан қўлга олинди. Кўп ҳолларда киши бирор хато иш қилиб қўйса, унинг ошкор бўлмаслиги учун яна хато қилишга мажбур бўлади. Қилмишини хаспўшлашга уринади. Юқорида ҳуқуқбузарлик содир этган шахс ҳам айбини давлат хизматчисига пора бериш орқали беркитишга уринди. Лекин ўз касбига содиқ ички ишлар органи ходимининг ҳалоллиги туфайли ҳуқуқбузарнинг мақсади амалга ошмади. Энди ҳуқуқбузар икки ҳолат бўйича қонун олдида жавоб беришига тўғри келади.

**Содиқ РАҲИМОВ,**
**ўз мухбиримиз.**
*Қашқадарё вилояти.*

*Молодежь – наше будущее*

# ЗАЛОГ УСПЕШНОЙ СЛУЖБЫ

**Лейтенант Отабек Рисбеков уроженец Аккурганского района. С юности он мечтал стать стражем порядка, а потому, получив среднее специальное образование, поступил в Специализированный филиал Ташкентского государственного юридического университета, который успешно закончил по специальности «Профилактика правонарушений и обеспечение общественной безопасности».**



Тонкости профессии молодой специалист, начавший профессиональную деятельность в органах внутренних дел с должности инспектора профилактики махалли Бишкент Куйичирчикского района, постигает у своего наставника подполковника Жахонгира Худойбердиева.

В настоящее время население махалли Бишкент составляет более 2 300 человек. Здесь функционируют две общеобразовательные школы, объекты социального назначения. Для молодежи организованы спортивные секции, регулярно проводятся различные состязания.

В целях предупреждения преступлений и правонарушений с махаллинцами ведется разъяснительная работа. Под особым контролем те, кто состоит на профилактическом учете. Принимаются меры к трудоустройству временно неработающих лиц.

– Несмотря на то, что Отабек молодой сотрудник, ответственным отношением к порученному делу он заслужил уважение среди личного состава, – говорит заместитель начальника ОВД района подполковник Сардор Ортиков. – Его целеустремленность – залог дальнейшей успешной службы.

...Привлеченным к ночному специальному мероприятию лейтенанту О. Рисбекову и его коллеге сотруднику ППС рядовому З. Ганиеву поступило сообщение: у жителя махалли имени Беруни неизвестные украли быка. Внимательно осмотрев место происшествия, стражи порядка предположили, что злоумышленники не могли уйти далеко и направились по оставленным ими следам. Действительно, воры не успели скрыться. Сотрудники настигли их на краю села. Одного скотокрада удалось схватить, второй – пустился бежать. Однако лейтенант О. Рисбеков догнал его и задержал. Позже выяснилось, что мужчины, позарившиеся на чужой скот, являются жителями махалли Куксарой.

Это лишь один пример из служебной деятельности молодого стража порядка. Но, как нам представляется, пример весьма показательный.

**Михли САФАРОВ,**
**соб. корр.**

*Ташкентская область.*

# ПОСЕЩЕНИЕ МОНОЦЕНТРА

Для слушателей специальных учебных курсов, организованных при Центре социально-правовой помощи несовершеннолетним ГУВД Ташкента, было организовано посещение Моноцентра по оказанию услуг незанятому населению. Цель – помочь ребятам выбрать востребованную профессию, получить необходимые навыки и квалификацию. Сотрудники Моноцентра предоставили информацию о программах подготовки электриков, токарей, водителей, поваров, перспективах овладения данными специальностями.

**Соб. корр.**





*Навоийская область*

# ТРЕНИНГ ДЛЯ СОТРУДНИКОВ

**Психологическая служба в органах внутренних дел решает ряд важных задач. Специалисты осуществляют профессиональный психологический отбор кандидатов на службу, проводят диагностические мероприятия, организовывают семинары-тренинги и др.**

Для личного состава Центра региональной координации Департамента исполнения наказания был организован очередной тренинг. В его проведении приняла участие психолог Навоийского государственного педагогического института Дилфуза Абдураимова. В ходе мероприятия рассмотрены прикладные методики профилактики стресса, восстановительной аутогенной тренировки. На конкретных примерах разъяснены формы оптимального вступления в межличностное общение, устранения конфликтных ситуаций.

**Соб. корр.**

*Birinchilar qatorida edi*

# POLKOVNIK OPA

***Tarixda ayollar orasida o‘zining jasorati, ilm-u urfon yo‘lidagi fidoyiligi, davlat boshqaruvidagi yuksak salohiyati bilan mangulik lavhidan joy olganlari ham talaygina.***



Jamiyat rivoji, yurt taraqqiyoti, el osoyishtaligi yo‘lida samarali xizmat qilgan Oyimsara Ergashevani ham ana shunday fidoyi ayollardan biri edi, desak, aslo yanglishmagan bo‘lamiz.

1941-yil Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanida tug‘ilgan, maktabda a’lo baholarga o‘qigan, tirishqoq, izlanuvchan Oyimsara yetuklik shahodatnomasini qo‘lga olgandan so‘ng, Qarshi pedagogika institutiga hujjat topshirdi. Omadi chopib, rus tili fakultetiga o‘qishga qabul qilindi. Institutni bitirib, o‘rta maktabda rus tilidan bolalarga saboq berdi. Maktabda ishlash bilan birga, viloyat IIB Tergov hibsxonasida ikki yil tarjimonlik ham qildi. Undagi sohaga bo‘lgan qiziqish va ishtiyoq, eng muhimi, ichki ishlar idoralari xodimiga xos qat’iyatni sezgan viloyat IIB rahbariyati O.Ergashevani sohaga taklif etdi.

Dastlabki faoliyatini boshqarma XCHK va FRBda katta inspektor sifatida boshlagan yosh xodima o‘z ustida tinimsiz ishlab, sohaga oid bilimlarini boyitdi. Olti yil shu sohada xizmat qilgan Oyimsara Ergasheva o‘z iqtidori va salohiyati, hujjat tartiboti borasidagi tajribasi bilan hamkasblari e’tiborini qozondi.

Shundan keyin Oyimsara Ergashevaning faoliyati viloyat IIB kotibiyat bo‘limi bilan chambarchas bog‘landi. O‘n yil kotibiyatda boshliq bo‘lib ishlagan kezlarda ham opaning tajribasi qo‘l keldi. Boshqarmaning turli sohalari va shahar-tuman ichki ishlar bo‘limlarida ish yuritish, fuqarolarning turli mazmundagi murojaatlarini saralash, ariza, shikoyatlar mualliflariga javob xatlari tayyorlash borasida jonbozlik ko‘rsatdi.

U jamoat ishlarida ham faol edi. Boshqarma xotin-qizlar qo‘mitasi a’zosi sifatida ichki ishlar idoralarida xizmat qilayotgan shahodatlangan va yollanib ishlovchi xotin-qizlarning muammolarini bartaraf etishda fidoyilik ko‘rsatdi.

Oyimsara Ergasheva biroz muddat jamoat tartibini ta’minlash bo‘limida katta inspektor lavozimida faoliyat ko‘rsatdi. Bu lavozimda ham samarali xizmat qildi. Shahar-tumanlar ichki ishlar bo‘limlarida xizmatni rejalashtirish, amalga oshirilgan ishlarni tartib bilan yig‘ma jildga taxlash va tahlil qilish borasida o‘ziga xos maktab yaratdi.

Opaning el osoyishtaligi yo‘lidagi xizmatining so‘nggi besh yili yana boshqarma kotibiyati bilan chambarchas bog‘landi. Oyimsara Ergasheva kotibiyatga rahbarlik qilgan mustaqillik yillarida sohada o‘ziga xos o‘zgarish va burilishlar bo‘ldi. Tizimning ko‘plab sohalarida ish yuritish rus tilidan o‘zbek tiliga o‘tdi. O‘sha davrda ko‘plab hujjatlarni o‘zbek tiliga o‘girish, davlat tilida ish yuritish borasida mutaxassis sifatida opaning xizmatlari nihoyatda katta bo‘ldi. 1993-yilda Oyimsara Ergashevaga «polkovnik» maxsus unvoni berildi. Oradan ikki yil o‘tgach pensiyaga chiqdi.

Oyimsara opaning hayotda erishgan yutuqlarida turmush o‘rtog‘i Husan Ergashevning ham munosib hissasi bor. Ular ikki o‘g‘ilni tarbiyalab voyaga yetkazishdi. Katta o‘g‘li Aziz Ergashev onasi izidan borib, ichki ishlar organlari tizimida xizmat qilib, mayor unvoni bilan pensiyaga chiqdi. Ayni kezlarda uning to‘ng‘ich farzandi podpolkovnik Ruslan Ergashev ham ichki ishlar organlarining tezkor qidiruv xizmatida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ha, bugun viloyatning birinchi polkovnik ayoli Oyimsara Ergasheva oramizda bo‘lmasa-da, uning ezgu ishlari hamon meva bermoqda, o‘zi qalblarimizda yashamoqda.

**Sodiq RAHIMOV,**
**o‘z muxbirimiz.**
*Qashqadaryo viloyati.*

*Yoshlar — kelajak bunyodkori*

# YOSHLIK G‘AYRATI BILAN

***Yosh kishining g‘ayrati bilan boshlangan ishda unum, baraka bo‘ladi. Surxondaryo viloyati IIB YHXBda ham shunday ishga chaqqon, tirishqoq yosh xodimlar bisyor. Ulardan biri YHXB ma’muriy amaliyot bo‘linmasi katta inspektori, leytenant Asadbek Choriyevdir. U zimmasidagi vazifalarni o‘z vaqtida sidqidildan ado etib kelmoqda.***



2019–2022-yillarda IIV Akademiyasida tahsil olgan qahramonimiz ichki ishlar organlarida faoliyatini boshlaganiga hali ko‘p bo‘lmadi. Shunga qaramay, ustozlarining, hamkasblarining e’tiboriga tushgan. Asadbek kamgap, ammo o‘z ishini puxta bajaradiganlardan. Sababi oilada shunday tarbiya olgan.

Asli jarqo‘rg‘onlik yigit ayni paytda fuqarolar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarni ma’muriy tartibda ko‘rib chiqib, ular bo‘yicha to‘g‘ri qaror chiqarish ishiga mas’ul.

– Bir kunda 500–600 ga yaqin bayonnomalarni ko‘zdan kechiramiz, – deydi leytenant Asadbek Choriyev. – Bular huquqiy hujjat bo‘lgani bois yanglishish, xato qilish mumkin emas. Bu esa kishidan chuqur bilimni, hushyorlikni talab qiladi. Qolaversa, kapitan Faxriddin Muhitdinovning har bir ishni sinchkovlik, qattiqqo‘llik bilan o‘rgatayotgani tajribamni oshirishimga yordam beryapti.

Asadbekka biror-bir vazifa yuklatilishi bilan ishga kirishadi. Bugungi ishni ertaga qo‘yma, degan naqlga amal qiladi. Yo‘qsa, qiladigan ishlari to‘planib, ikki oyoq bir etikka tiqilib qolishini yaxshi biladi.

Asadbekning otasi fermerlik bilan shug‘ullansa, onasi maktabda ta’lim beradi. Ikkisi ham mehnatdan qochmaydigan, halol rizqning ortidan qolmaydigan mehnatsevar inson bo‘lgani uchunmi, bu odat Asadbekka ham ko‘chgan. Chunki u inson hamma narsaga tirishqoqligi, mehnati bilan erishgani yaxshiroq deb biladi. Yana o‘z ustida ishlashni, yangiliklarga intilishni xush ko‘radi. Har holda, zamonaning shiddatidan ortda qolmagan yaxshi-da.

O‘z kasbini yaxshi ko‘rgan Asadbek bo‘sh vaqtida futbol o‘ynab turadi. Sababi, bu o‘yinda katta mantiq yashiringan deb hisoblaydi. Mazkur sport turi kishini abjir, tez qaror qabul qila oladigan, qat’iyatli, sinovlarga yengilmas qilib tarbiyalashini yaxshi fahmlaydi.

Bugun Asadbek singari yosh xodimlar tizimning faol va tashabbuskor qatlamiga aylanmoqda. Ularning kelgusida tajriba orttirib, o‘zining munosib o‘rnini egallashiga ko‘maklashish zarur. Zero, e’tibor bor joyda o‘sish, yuksalish bo‘ladi.

**Feruza RAHMONQULOVA,**
**o‘z muxbirimiz.**
*Surxondaryo viloyati.*

*Паркент томонларда*

# МУВАФФАҚИЯТ ОМИЛИ

**Ёзнинг жазирама кунлари сўлим ва баҳаво масканлар ҳар доимгидан кўра гавжумроқ бўлади. Тошкент вилоятининг Паркент тумани ана шундай хушманзара гўшалардан бири.**

Албатта, ҳудуд осойишталигини таъминлаш соҳавий хизматлар вакиллари, хусусан профилактика инспекторлари зиммасига улкан масъулият юклайди. Паркент тумани ИИБ ҲПБ профилактика катта инспектори, майор Рустам Бобохўжаев «Булоқбоши» маҳалла фуқаролар йиғини осойишталигига масъул.

Маҳаллада 2042 нафар турли миллат вакиллари истиқомат қилади. Маҳалла фуқаролар йиғини раиси Озода Солиева, ҳоким ёрдамчиси Азизбек Жўраев, Ёшлар етакчиси Шуҳрат Маҳкамов ва бошқа фаоллар билан бамаслаҳат яқин ҳамкорликда ишлаб келаётгани муваффақиятларнинг омили бўлмоқда.

Аҳолининг 546 нафари вояга етмаганлар бўлса, 18 ёшдан 30 ёшгача бўлганлар сони 458 нафарни ташкил этади. Шу боис ёшлар билан ишлаш, уларнинг бўш вақтини



мазмунли ташкил этиш энг долзарб масалалардан саналади.

Ички ишлар органларининг профилактика ва пробация ҳисобида турувчи шахслар билан тарғибот-ташвиқот ишлари мунтазам олиб борилади.

– Жорий йилнинг 6 ойида амалдаги қонун-қоидаларни бузган шахсларга нисбатан 236 та маъмурий баённома расмийлаштирилди, – дейди профилактика катта инспектори, майор Р. Бобохўжаев. – Бундан мақсад, албатта кимнидир жазолаш эмас, балки навбатдаги жиноят ёки ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишдир.

Кези келганда айтиш керакки, ҳамкорликдаги саъй-ҳаракатлар натижасида сўнгги йилларда маҳаллада умуман жиноят содир этилишига йўл қўйилмади. Бу, ўз навбатида маҳалланинг «яшил ҳудуд»да ўз мавқеини сақлаб қолишига имкон берди. Бунда профилактика катта инспекторининг муносиб ҳиссаси бор, албатта.

Уйидан кўнгли тўқ кишигина хизматга масъулият билан ёндаша олади. Майор Р. Бобохўжаев мисолида кўриш мумкин. Унинг умр йўлдоши Дилафруз Насриева – ўқитувчи. Бугунги кунда 2 нафар фарзандини ўзлари сингари эл-юрт корига ярайдиган инсонлар этиб тарбиялашни мақсад қилган бу аҳил ва иноқ оила бошқаларга ҳам намуна бўлаётганини алоҳида таъкидлаш лозим.

**Суратда:** *(чапдан) майор Рустам Бобохўжаев, профилактика инспекторлари, катта лейтенантлар Шавкат Музаффаров, Маъруф Мухсимов ҳамда туман ИИБ бошлиғининг маънавий-маърифий ишлар бўйича ўринбосари, подполковник Камолиддин Якубовлар билан.*



Ички ишлар органларига қилинаётган ҳар бир мурожаат ортида фуқароларнинг бир олам умид ва ишончи мужассам. Жиноятларнинг олдини олиш ва содир этилганларини «иссиқ изида» фош этиш соҳавий хизматлар ходимларидан жипсликни талаб этади.

Паркент тумани ИИБ Ташкилий бўлинмаси навбатчилик қисми ходимлари мурожаатларга жавоб берар экан, буни асло эсидан чиқармайди. Оила-турмуш доирасидаги муносабатлар, ўғрилик, фирибгарлик ва бошқа масалалар юзасидан мурожаатларга ўз вақтида жавоб бериш, содир этилиши мумкин бўлган кўплаб кўнгилсизликларнинг олдини олишда муҳим ўрин тутади.

Туман ИИБ Ташкилий бўлинмаси навбатчилик қисми ходимлари зиммасига юклатилган вазифаларни сидқидилдан адо этиб келаётгани хизмат самарадорлигини оширишда муҳим ўрин тутмоқда.

**Суратда:** *навбатчилик қисми катта инспектор-навбатчиси, майор Фаррух Қурбоналиев ҳамда навбатчи ёрдамчиси, сафдор Аброр Жабборов хизмат жараёнида.*

**Шу йил 19 январь куни Паркент тумани ИИБга «Ойдин» маҳалла фуқаролар йиғинида яшовчи Д. В. яқин танишларига гиёҳвандлик моддасини сотаётганлиги тўғрисида хабар беришди. Ўтказилган тезкор-қидирув тадбири давомида, мазкур хабар ўз тасдиғини топди: фуқаро Д. В. марихуана гиёҳвандлик моддасига ўхшаш модда сотаётган вақтда ушланган.**

* * *

**2023 йилнинг 18 май куни туманнинг «Яшнобод» маҳалла фуқаролар йиғинида яшовчи фуқаро П. Жамшид ёрдам сўраб туман ИИБ бошлиғи номига ариза билан мурожаат қилади. У ўз аризасида номаълум шахслар яшаш хонадони ертўласида жойлашган савдо дўконидан товарларни ўғирлаб кетиб, жами 15 млн сўм миқдорида моддий зарар етказганлигини баён қилади...**

**Мазкур ҳолат юзасидан олиб борилган тезкор тадбирлар натижасида жиноятни шу туманда яшовчи фуқаро Я. З. содир этганлиги аниқланди ва ундан ашёвий далиллар расмийлаштириб олинди.**

**Мазкур жиноятни фош этишда Паркент тумани ИИБ ЖҚБ катта тезкор вакили, майор Фаррух Эркаев жонбозлик кўрсатганини алоҳида эътироф этиш лозим.**




– Оилалар тинчлигини таъминлаш мақсадида ўтказилаётган профилактик тадбирларда оммавий ахборот воситаларининг таъсир кучи катта, – дейди туман ИИБ ҲПБ Хотин-қизлар масалалари бўйича катта инспектори, капитан Муҳаббат Соҳибназарова. – Шу боис ОАВни жалб этган ҳолда туман ҳудудида жойлашган олий таълим муассасаларида «Биз зўравонликка қаршимиз!» шиори остида корхона ташкилот, маҳалла ва таълим муассасаларида 30 га яқин тарғибот тадбирлари ўтказилди. Тадбирларга жами 1680 дан ортиқ ёшлар жалб этилди.

**Шерзод АБДУСАМАДОВ,**
**ўз мухбиримиз.**

Ma’naviyat va ma’rifat darsi

# SUV RESURSLARI — KELAJAK UCHUN

**Suv hayot manbayi, tabiatning eng noyob, bebaho boyliklaridan biri hisoblanadi. Tabiiy muhit muvozanatini saqlab, uni mo‘tadil holatda ushlab turuvchi asosiy omil rolini o‘ynaydi.**



Suv resurslariga bo‘lgan talab tobora oshib bormoqda. Eng yomoni, suv taqchilligi, toza ichimlik suviga bo‘lgan talabning oshishi fonida iqlim ham o‘zgarib boryapti, ko‘plab nizolar, ekologik muammolar yuzaga chiqyapti.

**Iqlim o‘zgarishining nafaqat suv miqdori kamayib ketishiga ta’siri bor, balki tabiiy ofatlar ko‘payishiga olib kelish ehtimoli ham katta. Qurg‘oqchilik, o‘rmon yong‘inlari bilan bir qatorda, suv toshqinlari ham yuz berishi kuzatilmoqda. Shunisi hayratlanarliki, 2000-yildan buyon suv toshqinlari bilan bog‘liq fojialar oldingi yillarga nisbatan 134 foizga oshgan. 1970-yildan buyon suv toshqinlari oqibatida 322 ming inson halok bo‘lgan, yetkazilgan iqtisodiy zarar esa 1,14 milliard dollarni tashkil qiladi.**

Darvoqe, toza ichimlik suvi haqida gap ketganda, bir jihatni yoddan chiqarib qo‘yamiz. Dunyodagi jami suvning 97,5 foizi dengiz yoki okeanlarda joylashgan bo‘lib, ichishga yaroqsiz sho‘r suvdir. 2,5 foiz ichishga yaroqli chuchuk suvning ham aksariyat qismi muzliklar, olish qiyin bo‘lgan yerosti qatlamlarida joylashgan. Hozirda yer yuzida mavjud bo‘lgan chuchuk suv zaxiralarining bir foizidangina insoniyat foydalanishi mumkin.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotiga ko‘ra, dunyo bo‘ylab har yili kamida 1,4 million kishi toza ichimlik suvi yetishmasligidan vafot etmoqda. Dunyo aholisining yarmi haligacha toza ichimlik suvi, sanitariya va gigiyena vositalari bilan ta’minlanmagan. BMTning «Atrof-muhit muhofazasi» dasturi (YUNEP) ma’lumotlariga ko‘ra, sayyoramizdagi daryolarning yarmi jiddiy ifloslangan. Ayni paytda yer shari aholisining 40 foizi toza ichimlik suvi yetishmasligidan aziyat chekmoqda. Har yili toza ichimlik suvi tanqisligi tufayli 1,2 million kishi turli xil xastaliklarga duchor bo‘lmoqda. Har yili 5 million kishi ifloslangan va sifatsiz suvdan iste’mol qilishga majbur bo‘lmoqda.

Xolisanillo aytganda, toza ichimlik suvi muammosi mamlakatimizni ham chetlab o‘tgani yo‘q. Respublikamizning ayrim joylarida iste’molga yaroqli bo‘lgan suvning tanqisligi sezilmoqda. Sir emaski, hozirgacha toza ichimlik suvi kirib bormagan qishloqlar mavjud. Kuzatishlar mobaynida tog‘lardan quyi tomon oqib tushayotgan ariq va soylarning suvlari yildan-yilga kamayib borayotganiga ishonch hosil qilasiz.

**■ Agar odam tanasidagi suyuqlikning 2 foizini yo‘qotsa, u juda chanqaydi. Agar yo‘qolgan suv ulushi 10 foizdan oshsa, bosh miya faoliyati buziladi, yo‘q narsalar ko‘ziga ko‘rinadi, har xil tovushlarni eshitadi. 12 foiz yo‘qotish bilan odam shifokor yordamisiz tiklana olmaydi. 20 foiz yo‘qotish bilan odam o‘ladi.**

**■ Inson ovqatsiz taxminan olti hafta, suvsiz esa besh–yetti kun yashashi mumkin.**

**■ Afrika va Osiyodagi ba’zi davlatlarda odamlar ichimlik suvi manbayiga borish uchun har kuni o‘rtacha 6 km yo‘lni bosib o‘tishga majbur.**

**■ Antarktidada yoshi 30 million yildan ham ortiq muzliklar mavjud.**

**■ Har kuni quyosh ta’siridan yerdagi trillion tonna suv bug‘lanadi.**

**■ Bir kishi butun umri davomida o‘rtacha 35 tonna suv ichadi.**

Ehtimol, bu tog‘ yonbag‘rida o‘sayotgan dov-daraxtlarning ayovsiz kesilayotgani tufaylidir. Balki bunga so‘nggi yillarda qir-adirlarda dehqonchilik qilish uchun minglab quduqlarning barpo etilayotgani sabab bo‘layotgandir. 50, 100, 200 metr va undan ham chuqurdan quvurlar orqali tortib olinayotgan suvning beayov ishlatilishi, bemaqsad sarflanishi natijasida ariqlar qurib qolayotgandir. Masalan, Jizzax viloyatining G‘allaorol dashtlarida yashaydigan aholi oldin 10 metrdan suv olib ichishgan bo‘lsa, hozir 20 metrdan ham bazo‘r suv chiqarishyapti.

**Tahlilchilar 2050-yillarga borib, suvning jahondagi eng qimmatli tabiiy ne’matlardan biriga aylanishini taxmin qilmoqda. Gap shundaki, BMT Jahon cho‘llanish va qurg‘oqchilikka qarshi kurashish tashkiloti 2050-yilga kelib qurg‘oqchilik dunyo aholisining to‘rtdan uch qismidan ko‘prog‘iga ta’sir qilishi mumkinligini ma’lum qildi. Jahon tabiiy resurslar instituti va Britaniyaning «Economist Intelligence Unit» tashkiloti esa 2040-yilga borib suv tanqisligiga eng ko‘p uchrashi taxmin qilinayotgan 33 davlat nomini e’lon qildi. Afsuski, ular orasida Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, O‘zbekiston ham bor.**

So‘nggi yillarda Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida suv resurslari masalasida muammolar kelib chiqmoqda. Zero, mintaqamizning obi hayotga bo‘lgan ehtiyojining deyarli 90 foizini bir necha mamlakat hududidan oqib o‘tuvchi Amudaryo va Sirdaryo ta’minlaydi. Sir emaski, ayni paytda boshqa davlatlarda bo‘lgani kabi, mamlakatimizda ham suv yetishmasligi, suv manbalarining qurishi va ifloslanishi bilan bog‘liq ko‘plab muammolarga duch kelmoqdamiz. Suvga oid muammolarning asosiy sababi suv qimmatbaho resurs ekanini tan olmaslikdir. Oldingdan oqqan suvning qadri yo‘q, deganlaridek, hali ham ichimlik suvini oqizib qo‘yib ekinlarni sug‘oraveramiz. Avtomobilini kunora ichimlik suvida yuvadiganlarga ham ko‘zimiz tushadi. Ko‘cha-ko‘yda buzuq sug‘orish tizimlaridan yuzlab litr suvlar behudaga oqib yotaveradi. Lekin shu topda respublikamizning qaysidir hududida odamlar bir chelak suvga zorligini tasavvur ham qilmaymiz. Ekinlarni sug‘orishni-ku qo‘yaturaylik, hatto odamlar o‘z iste’moli uchun ham suv topishi kundan-kunga qiyinlashib borayotgani bor gap.

Shuning uchun hozirgi paytda dunyodagi aksariyat davlatlar, xususan, O‘zbekistonda ham ekologik tabiiy muvozanatni tiklashdan tortib suvdan tejamkorlik bilan foydalanishgacha bo‘lgan barcha yo‘nalishlarda tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Buni bir necha yillardan buyon yurtimizda «Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasida tabiatni yashillashtirish maqsadida barpo etilayotgan yangidan-yangi bog‘lar, suv yo‘qotilishining oldini olish uchun ariq va kanallarning betonlashtirilishi, qor va yomg‘ir suvlaridan samarali foydalanish yo‘lida bunyod etilayotgan suv omborlari misolida ko‘rish mumkin.

Qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishda keng joriy etilayotgan suv tejovchi texnologiyalarni olaylik. Mamlakatimiz agrar sektorida bunday texnologiyalarni qo‘llash nafaqat suvni sezilarli darajada tejashi, balki hosildorlikni oshirishi, sarf-xarajatlarni keskin kamaytirishi bilan ahamiyatlidir. Gap suv sarfini tejash, uning har tomchisidan samarali foydalanish to‘g‘risida borarkan, bu borada Prezidentimizning 2022-yil 1-martdagi «Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qaroriga alohida to‘xtalib o‘tish joiz.

**Ushbu qarorga asosan, 2022-yilda respublika bo‘yicha 89,8 ming gektarda tomchilatib, 16,2 ming gektarda yomg‘irlatib sug‘orish tizimlari joriy qilindi. Natijada suv sarfi tejaladigan maydonlar 1 million gektardan oshib, qishloq xo‘jaligi umumiy ekin maydonining 25 foizi qamrab olindi. Muhimi, shu yilda 1,6 milliard tonna suv iqtisod qilindi. Hosildorlik o‘rtacha 30–35 foizga oshishiga erishildi.**

2023-yilda ham bu boradagi ishlar tizimli davom ettirilib, suv tejovchi texnologiyalar qo‘llanilgan maydonlar hajmi va uning ijobiy samaralari ko‘lamini yanada oshirish maqsad qilingan. O‘zbekiston, shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan daryolardan umumfoydalanish, suv muammolarini birgalikda hal etish choralarini ko‘rib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, suv faqat odamlar uchun emas, balki butun tirik jonzot uchun ham zarur bo‘lgan bebaho ne’matdir. Uni tejab ishlatib, kelajak avlodga ham boricha yetkazishimiz kerak.

**Foziljon MAMASHARIPOV,**
**o‘z muxbirimiz.**

## QISQA SATRLARDA

**Sirdaryo viloyati IIB JXX YHXB xodimlari tomonidan Guliston shahrida yo‘lovchi tashish xizmati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy va yuridik shaxslar bilan uchrashuv tashkil etildi.**

Tadbirda yo‘lovchilar xavfsizligini ta’minlash, avtobus va mikroavtobuslarni texnik soz holatda qatnovga qo‘yish, sohaga oid qonunchilik normalariga rioya etish masalalari muhokama qilindi. Haydovchilarga yo‘l harakati qoidalariga oid tavsiyalar berildi.

* * *

**Oqoltin tumani IIB tomonidan hamkor tashkilotlar bilan birga «Andijon» mahallasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan tadbir o‘tkazildi.**

«Sog‘lom ona, sog‘lom oila, sog‘lom turmush tarzi uchun» shiori ostida tashkil etilgan tadbirda sport, to‘g‘ri ovqatlanish, erta nikoh, ayollarga psixologik ko‘mak kabi mavzular qamrab olindi. Muloqot davomida mutaxassislar tomonidan mavzuga doir taqdimotlar o‘tkazildi.

# QO‘SHSAHIFADA – OILA HALQASI ULANDI



**Hammasi kechagidek esida. Asilbek akasi barmog‘iga uzuk taqib qo‘yganda, «Nikoh saroyi»dagi opa jilmayib «Sizlarni bugundan boshlab er va xotin, deb e’lon qilaman» deganda, baxtdan qanot chiqarib, uchib ketgan edi.**

Qalbi to‘la orzular bilan kelin bo‘layotgan Munisa turmushning mushti borligini, boshiga sinovlar tushishini hali bilmasdi. Ular bir yilcha baxtli yashashdi. Asil akasi uni judayam yaxshi ko‘rar, yer-u ko‘kka ishonmasdi. Aynan shu jihat qaynonaga yoqmadi. O‘g‘lini kelinidan qizg‘ana boshladi. Bo‘lar-bo‘lmasga ayb topib, kun bermay qo‘ydi.

Asilbek aqlli yigit edi. Masalaning asl mohiyatini yaxshi tushunar, tarozining ikki pallasini birdek ushlashga harakat qilardi. Bu orada ikki nafar farzand dunyoga keldi. Bir-biridan shirin bolakaylar vaziyatni yumshatgandek bo‘ldi. Farzandlar Asil akasi bilan munosabatni yanada qalinlashtirdi. Qaynonaning qovoq-tumshug‘i esa badtar osildi. Shu tariqa, oraga sovuqchilik oraladi. Siquvlarga yetti yil chidagan Munisaning oxiri sabr kosasi to‘ldi. Ikki bolani olib, onasinikiga ketib qoldi.

Mirzaobod tumani «Oqoltin» mahallasida yashovchi Asilbek va Munisaning oilasidagi bu holatga tuman IIB aralashdi. Oila buzilishiga uchinchi shaxs sabab bo‘layotgani aniqlangach, Munisa Azizovaga himoya orderi berilib, uyiga qaytarildi. Qaynona bilan olib borilgan profilaktik suhbat natijasida u o‘z xatosini tan oldi. Oiladagi vaziyat sog‘lomlashdi. Natijada oilaning muqaddas halqasi yana tutashdi.

**Dilbar SHERBEKOVA,**
**Mirzaobod tumani IIB HPB XQMB katta inspektori, leytenant.**

**Bu yil Sirdaryo viloyati tashkil etilganiga 60 yil to‘ldi. Viloyatning Mirzacho‘lni o‘zlashtirish bilan bog‘liq boy tarixi bor. Lekin garchi cho‘l-u biyobon o‘rnida bunyod bo‘lgan bo‘lsa-da, viloyat hududida uzoq tarixdan xabar beruvchi tarixiy obidalar talaygina. Ulardan mashhuri karvon yo‘li ustida qurilgan Sardoba tumanidagi «Sardoba» suv inshooti bo‘lsa, Sayxunobod tumanida qoldiqlari topilgan qadim Xushkat, Sirdaryo tumanidagi Kattaqiztepa shaharsozlik tarixiga oid nodir manzillar sanaladi.**

**Xushkat Shohruhiya shahriga yaqin masofada joylashgan, Sirdaryo sohili atrofidagi kent bo‘lgan. Xovos tumanidagi «Eski Xovostepa» arxeologik yodgorligidan esa ilm-fan va tarix uchun muhim ahamiyatga ega ko‘pgina osori atiqalar topilgan.**

# «AHILLIK»DA BARAKA BOR




**«Ahillik» Gulistonning ravnaq topib borayotgan mahallalaridan biri. Mayor Nuriddin Muhammedov profilaktika inspektori sifatida shu mahallaning osoyishtaligiga mas’ul.**

Mahalla yoshlari juda faol. Nuriddin ular o‘rtasida turli sport musobaqalarini uyushtirib turadi. Ayniqsa, minifutbol, ko‘pkurash bellashuvlari yoshlar orasida mashhur. Joriy yilda ushbu sport turlari bo‘yicha o‘tkazilgan musobaqalarda ikki yuzdan ortiq yoshlar ishtirok etdi. Futbol bo‘yicha qizg‘in, murosasiz bahslarda g‘oliblikni qo‘lga kiritgan «Iftixor» ko‘chasi yoshlarining quvonchini ko‘rib inspektorning o‘zi ham sevindi. Boisi, ushbu ko‘cha yoshlari haqiqatan ham musobaqaga juda qattiq tayyorlangandi. Eng muhimi, yoshlarning bo‘sh vaqti mazmunli o‘tib, sog‘lom turmush tarziga rag‘bati oshgandi.

Mayor Nuriddin Muhammedov jinoyatchilikning oldini olishning eng yaxshi vositasi ma’naviy muhitni yaxshilash ekaniga qattiq ishonadi. Shu sabab mahallaga yozuvchi, shoir, olimlarni tez-tez taklif qilib turadi. Ular bilan mahalla ahli o‘rtasida bo‘lib o‘tadigan uchrashuv, davra suhbatlari doim qizg‘in tus oladi, samimiy ruhda o‘tadi.

Bu yil mahallada yana bir xayrli ishga qo‘l urildi – mingdan ortiq kitobga ega bo‘lgan mo‘jazgina kutubxona tashkil etildi. Kutubxonaga a’zo bo‘lishni yoshlar boshlab berishdi. Sekin-asta katta yoshlilar ham kutubxonaga kela boshlashdi. Qo‘yingki, uch oy orasida kutubxonaga a’zo bo‘lganlarning soni yuz nafardan oshdi.

Yurtimizdagi eng tarixiy va salohiyatli GESlardan biri hisoblangan Farhod GES Sirdaryo daryosida 1943-yil 10-fevralda qurilishi boshlangan va 1948-yil 15-fevral kuni ishga tushirilgan. Sirdaryo viloyatining Shirin shahrida joylashgan GES ishga tushirilganiga 75 yil bo‘ldi.

Yillar davomida doimiy ekspluatatsiya jarayonlarida GESning ko‘plab uskunalari jismonan va ma’nan eskirishi natijasida ishlab chiqarish quvvati pasaygan edi. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-oktabrdagi «Sirdaryo viloyatining Shirin shahridagi «Farhod GES» UKni modernizatsiya qilish investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qaroriga asosan GESni modernizatsiya va qayta texnik jihozlash ishlari amalga oshirildi.

Ushbu modernizatsiya ishlaridan so‘ng GESning amaldagi quvvati 114 MVt dan 127 MVt ga oshirildi.

* * *

Sirdaryo viloyatida O‘zbekiston elektr energiyasining uchdan bir qismi, charm va charm mahsulotlarining 16 foizi, shuningdek farmatsevtika mahsulotlarining qariyb 9 foizi ishlab chiqariladi. Ushbu viloyat poliz mahsulotlari yetishtirish bo‘yicha respublikada birinchi o‘rinda turadi.

# SIRDARYO VILOYATI IIB

## Vazir kubogi sari olg‘a!




Boyovut tumanida yoshlar o‘rtasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yish maqsadida tuman hududida sportga qiziquvchi yoshlar o‘rtasida voleybol bo‘yicha «Ichki ishlar vaziri kubogi» musobaqasining tuman bosqichi o‘tkazildi.

Musobaqa ochilishida ishtirok etgan IIB vakillari hamda sport maktabi xodimlari sport bilan muntazam shug‘ullanishning ijobiy jihatlari haqida so‘zlab, ishtirokchilarga omad tilashdi.

Turnir yakuniga ko‘ra, g‘olib va sovrindorlar qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandi.

**Xurshid MUQIMOV, kapitan.**

## XODIM MA’NAVIYATI MUHIM

**...Yangiyer shahar IIB boshlig‘ining o‘rinbosari, kapitan Ilyos Amanboyev ertalabki saflanishdan keyin yoniga katta inspektorni olib, «xodimbay» o‘rganish ishlariga kirishdi. U ekspert-kriminalistika guruhi katta inspektori, mayor Abduvahob Abdullayevning yashash sharoiti bilan tanishishni rejalashtirgandi.**

«Binokor» mahallasi shaharning sharqiy qismida joylashgan bo‘lib, aholi tig‘iz yashaydi. Yo‘lga chiqilganiga yarim soat bo‘lar-bo‘lmas, mayorning xonadoniga yetib borishdi. Unchalik ham katta bo‘lmagan hovli. Suvlar sepilgan, hamma yoq ozoda. Abduvahob aka va turmush o‘rtog‘i ularni kutib oldi. Hovlidagi mo‘jazgina supaga cho‘kishdi. Qizg‘in suhbat boshlandi. Ma’lum bo‘lishicha, keyingi yillarda oila daromadining asosiy qismi farzandlarni oliy o‘quv yurtida o‘qitishga sarflanarkan. Shu sabab uy-joy ta’miriga mablag‘ orttirishning imkoni bo‘lmagan.

Kapitan Ilyos Amanboyev shu kuni viloyat IIB boshlig‘i nomiga tegishli ma’lumot tayyorladi. Unda Yangiyer shahar IIB EKG katta inspektori A.Abdullayevga uy-joyini ta’mirlash uchun moliyaviy ko‘mak ajratish masalasida amaliy yordam berish so‘raldi. Qarangki, oradan uch-to‘rt kun o‘tib, ushbu masalada ijobiy javob keldi. Rahbariyat xodimga 30 million so‘m miqdorida ssuda ajratishga qaror qilgandi. Ilyos Amanboyev bu xabardan Abduvahob akadan kam quvonmadi. Axir, boshlagan xayrli amaling samara bersa, qalbing quvonchga to‘lmay bo‘ladimi?

Xodimlar bilan ishlashning o‘ziga xos sir-asrorlari bor. Ilyos Amanboyev har bir xodimning xatti-harakati, kundalik faoliyatini kuzatib boradi. Ular bilan yakka tartibda o‘tkazilgan suhbatlarda shaxsiy qiziqishlarini ham bilib olgan. Shu boisdir, o‘tgan yili shaxsiy tarkib tomonidan birorta ham qonunbuzilish holati sodir etilmadi.

Kapitan Ilyos Amanboyev xodimlarning ma’naviy-ma’rifiy tarbiyasiga katta ahamiyat beradi. Bo‘limda mo‘jazgina kutubxona tashkil etilgan. «Kodeks bilimdoni» ko‘rik-tanlovi o‘tkazildi. Tarixiy go‘shalarga, ma’naviyat maskanlariga, madaniy obyektlarga sayohatlar uyushtirildi. Bu o‘z ijobiy natijasini bermay qolmadi. Xodimlarning ma’naviy bilimini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan test sinovlarida o‘rtacha 85 foizlik samaradorlik qayd etilgani buning isbotidir.

## SANDIQDAGI OV QUROLLARI

**O‘qotar qurolga qiziqmaydigan erkak bo‘lmasa kerak. Har qanday yigit imkoniyat tug‘ilsa, miltiq otish, merganlikdan bahs olib borishni xohlaydi. Lekin bunday qiziqish o‘qotar qurolni noqonuniy saqlashga, undan foydalanishga asos bo‘lmaydi. Boisi, noqonuniy ravishda qurolga egalik qilish jinoyatga, qaysidir umrning zavol topishiga sabab bo‘lishi mumkin.**

Podpolkovnik Anvar Umarov Sirdaryo viloyati IIB JXX JTSB nazorat-litsenziyalash faoliyati guruhi katta inspektori vazifasida xizmat qiladi. Noqonuniy ravishda qurol saqlash holatlarini aniqlash, qonunbuzarliklarni bartaraf etish asosiy vazifalaridan biri. Bu borada targ‘ibot ishlariga ko‘proq e’tibor qaratadi. Joriy yilning o‘zida tuman va shaharlarda ov qurollarini saqlash, ulardan foydalanishga oid o‘n beshdan ortiq targ‘ibot tadbiri o‘tkazildi. Ovchilik faoliyati bilan shug‘ullanadigan shaxslarning barchasi ham ov qurollarini saqlashga oid qonun talablarini bilmasligiga ana shu tadbirlarda ko‘p bor amin bo‘ldi. Shu sababdan ov qurollarini uyda saqlashda ehtiyot choralariga rioya etish talablarini tushuntirishga to‘g‘ri keldi.

Bundan tashqari, joriy yilning o‘zida 2757 nafar ov quroli egasi tekshiruvdan o‘tkazildi. Natijada ularning ayrimlari ov qurollarini loqaydlik bilan bolalar, begona shaxslardan himoya qiladigan sharoitda saqlamagani aniqlandi. Ayrimlari esa ov qurollaridan o‘zi va o‘zgalar hayotiga xavf tug‘diradigan nosoz holatda foydalangan. Ana shunday salbiy holatlar yuzasidan 160 nafar ov quroli egasi ma’muriy jazoga tortildi.

Ov qurollarini noqonuniy ravishda saqlash holatlari ham kam emas. Joriy yilning dastlabki 6 oyi davomida 66 ta holatda ov qurollarini noqonuniy saqlash aniqlangan. Aytish kerakki, ellik yil naridan otameros bo‘lib qolgan ov qurollarini sandiqda saqlashni aslo oqlab bo‘lmaydi. Kimdir bunday qurollarni ota-bobosidan esdalik, deb hisoblar, lekin inson hayoti uchun xavf tug‘diruvchi o‘qotar qurolni saqlash uchun bu asos bo‘la olmaydi.

Sardoba tumanidagi «Qo‘ytosh» mahallasida aniqlangan holat bunga misol bo‘la oladi. Fuqaro D.R. «TOZ-8» ov quroli va 55 ta o‘qni uzoq yillar davomida sandiqda saqlab kelgan. Agar ichki ishlar organlari xodimlari xonadonda shunday qurol saqlanayotganini aniqlamaganida, bu qancha davom etardi, bilmadik. Eng yomoni, inson jahl otiga minganida bu qurolni kimgadir o‘qtalmasligiga kafolat yo‘q.

I.X. 32 yoshda. U Boyovut tumani «Jo‘langar» mahallasida yashaydi. Olib borilgan surishtiruvlar natijasida uning xonadonida ham noqonuniy ov quroli borligi aniqlandi. Undan qurolni nega topshirmagani, ro‘yxatdan o‘tkazmagani so‘ralganida, hech qanday javob bera olmadi.



Tezkor tadbirlar davomida aniqlangan bunday holatlar bo‘yicha qonun doirasida jazo choralari ko‘rildi. Eng muhimi, noqonuniy saqlangan ov qurollari orqali fuqarolar hayoti, tinchligiga daxl qilish ehtimolining oldi olindi.

**Qo‘shsahifa materiallarini o‘z muxbirimiz Abdurahmon MUSTAFOQULOV tayyorladi.**

*Самаркандская область*

# ПО НЕВИДИМЫМ СЛЕДАМ

**Их служба не столь романтична, как показывают в кино, но от нее зависит многое. Применяя последние достижения науки, эксперты-криминалисты по незначительным для обывателя следам помогают восстановить картину происшествия, установить личность преступника.**

Сотрудники Экспертно-криминалистического центра УВД Самаркандской области за сутки участвуют в нескольких осмотрах мест происшествий, выступают в качестве специалистов при проведении следственных действий и оперативно-розыскных мероприятий. В Центре работает команда профессионалов, имеющих допуски на самостоятельное проведение основных видов криминалистических экспертиз – это экспертиза холодного оружия, дактилоскопическая, трасологическая, баллистическая, почерковедческая, портретная экспертизы, техническая экспертиза документов (ТЭД).

За истекший период текущего года сотрудниками проведено свыше 2300 экспертиз и более 2900 исследований дактокарт. Эксперты принимали участие в осмотре 1587 мест происшествий. Раскрыто 22 неочевидных преступления, опознано 17 трупов. Индентифицированы и установлены личности 159 правонарушителей.

– Благодаря передовым технологиям в кратчайшие сроки была установлена личность жителя махалли Жуш ота Кошрабадского района, укравшего деньги у отца, – рассказывает начальник ЭКЦ УВД области полковник Максуд Курбонов. – Мужчина и не подозревал, что кражу совершил его сын, заявил о пропаже денег. По отпечаткам пальцев рук установлена личность воришки. Система «Сонда» недавно помогла в раскрытии еще одного преступления – кражи в продуктовом магазине, расположенном в махалле Навруз Акдарьинского района.



Значение работы экспертов-криминалистов с каждым годом приобретает все большую значимость. Сотрудники Центра стремятся соответствовать требованиям времени, совершенствуют профессиональные навыки, системно повышают квалификацию, в том числе на базе ГЭКЦ МВД, в Республиканском центре судебной экспертизы им. Х. Сулаймановой при Министерстве юстиции Республики Узбекистан. Они внедряют в деятельность новейшие технологии, обмениваются опытом.

Во главе с полковником Максудом Курбоновым в Центре несут службу более 20 экспертов-криминалистов. Их ряды пополняются новыми сотрудниками – выпускниками Академии МВД Республики Узбекистан. Частыми гостями подразделения являются подполковник в отставке Сергей Бонадысев и майор в отставке Абдулло Хушназаров, которые щедро делятся опытом с молодыми экспертами.

**Замира БАЛТАЕВА,**
**соб. корр.**

*Ферганская область*

# ВАЖНЕЙШИЙ ФАКТОР

**В соответствии с положениями Концепции организации духовно-просветительской работы в органах внутренних дел в подразделениях ОВД осуществляется индивидуальная воспитательная деятельность.**

– Данная форма работы весьма эффективна, – говорит заместитель начальника по духовно-просветительской работе ОВД города Маргилана майор Одилжон Тожалиев. – За истекший период текущего года вместе с заместителями начальника ОВД, руководителями отделов посетили дома всех наших сотрудников. Такие визиты способствуют созданию положительной атмосферы среди личного состава.






По мнению майора О. Тожалиева, для результативной индивидуальной работы руководитель должен в прямом смысле выйти из кабинета, направиться непосредственно на место службы сотрудника, ближе познакомиться с его деятельностью. Руководитель должен также изучать социально-бытовые условия жизни подчиненных, обстановку в их семьях.

В течение первой недели июля майор О. Тожалиев обошел дома 10 сотрудников. К примеру, он посетил дом начальника отделения пробации майора Анваржона Юсупова. Здесь состоялась беседа с его родителями, которые были искренне рады словам о том, что их сын успешно служит, недавно прошел специальные курсы повышения квалификации. В тот же день побывал в доме начальника отделения по борьбе с терроризмом и экстремизмом майора Жахонгира Болтабоева, встретился с его близкими, удостоверился, что в семье царит искренняя и доброжелательная атмосфера.

Индивидуальная работа – фактор укрепления взаимного доверия между руководителями и сотрудниками, повышения эффективности служебной деятельности.

**Абдувосит СИДИКОВ,**
**соб. корр.**



*Yoshlar — kelajak bunyodkori*

# UNVON MUBORAK, ANVARJON!

**Paxtakor tumani IIB HPB profilaktika inspektori, leytenant Anvar Sobirov sohada faoliyat boshlaganiga bir yil bo'ldi. Shunga qaramay, xizmat hududi bo'lmish «Paxtakor» mahalla fuqarolar yig'inida huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish borasida samarali tadbirlarni amalga oshirishning uddasidan chiqdi. Natijada joriy yilning birinchi yarmida leytenantning xizmat hududida birorta ham jinoyat sodir etilmadi.**

Qolaversa, yosh xodim mahalla aholisiga huquqiy, psixologik va ijtimoiy yordam ko'rsatishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etishda faollik ko'rsatdi. Shuningdek, soha vakillari o'rtasida o'tkazilayotgan musobaqa va ko'rik-tanlovlarda yuqori natijalarga erishayotir. Mazkur jihatlar inobatga olinib, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining buyrug'iga asosan, rag'batlantirish tariqasida Anvar Sobirovga muddatidan oldin «katta leytenant» maxsus unvoni berildi.

— Kamtarona xizmatimning bunday baholanishi men va yaqinlarimga katta quvonch bag'ishladi, — deydi katta leytenant Anvar Sobirov. — Tabiiyki, bu e'tibor zimmamdagi vazifalarga yanada mas'uliyat bilan yondashishga, el tinchligini asrashga qaratilgan faoliyatimni kuchaytirishga undaydi. O'z navbatida Ichki ishlar vazirligi rahbariyatiga minnatdorlik bildiraman.

**Alijon ABDUSATTOROV,**
**o'z muxbirimiz.**
*Jizzax viloyati.*

*Ватан ҳимояси — муқаддас бурч*

# МАШҚДА ҚИЙИН БЎЛСА...

**ИИВ Халқаро аэропортларда хавфсизликни таъминлаш қўшинларига қарашли Урганч шаҳридаги 7260-ҳарбий қисмда касбий ва жанговар маҳоратини ошириш мақсадида взвод тактик-ўқув машғулоти ўтказилди.**





Машғулотда амалий ўқ отиш машқлари ўтказилиб, жанговар жойлашув ҳудудини муҳандислик жиҳозлаш ҳамда қўриқлаш ишлари олиб борилиб, экстремал шароитларда яшаб қолиш майдончасида амалий ҳаракатларда иштирок этишди.

Жанг майдонида яраланган ҳарбий хизматчиларга биринчи тиббий ёрдам кўрсатиш, эвакуация қилиш, шунингдек, ҳарбий хизматчилар заҳарланган ҳудуддан ўтиш, блок постларнинг жиҳозланиши ва у ерда хизмат олиб бориш, шаҳар шароитида жанг қилиш ҳамда биноларни ишғол этиш бўйича ҳам касбий кўникмаларини намойиш этишди.

Ҳарбий хизматчилардан подполковник Маҳмуд Қурбонов,





кичик сержантлар Санжарбек Алимов, Ҳикмат Ҳакимов, Сирожиддин Набиев, оддий аскарлар Шаҳзод Матёкубов, Асрор Қиёмов, Умиджон Отахоновлар зиммаларига юклатилган вазифаларга масъулият билан ёндашиб, сафдошларига ўрнак бўлишмоқда.

– Жорий йилнинг ўтган даврида вилоят ҳудудидаги таълим муассасалари ўқувчилари билан учрашувлар, давра суҳбатлари, «Очиқ эшиклар куни» тадбирлари ўтказилди, – дейди ҳарбий қисм командирининг ўринбосари, подполковник Жўръат Отажонов. – Ушбу тадбирларда ёшлар аскарлар ҳаёти билан яқиндан танишишди. Айниқса, ҳарбий техникалар ҳамда замонавий курол-яроғларнинг намойиш этилиши тадбир иштирокчиларида ўзига хос қизиқиш уйғотди.

Ҳарбий хизматчилар ўртасида соғлом турмуш тарзини кенг тарғиб этиш, уларни ижтимоий-ҳуқуқий ҳимоя қилиш, хизматини муносиб тарзда рағбатлантириш, маънавий онгини, маданиятини, сиёсий-ҳуқуқий билим савиясини ошириш, оилавий шароитини ўрганиш ва амалий ёрдам бериш, тураржой ҳамда имтиёзли банк кредитлари билан таъминлаш, даволаш ва дам олиш муассасаларидан самарали фойдаланиш борасида ҳам тегишли ишлар олиб борилмоқда. Амалга оширилаётган бу каби тадбирлар юртимизни ҳар қандай кўринишдаги жиноий тажовузлардан ишончли ҳимоя қилишда муҳим аҳамият касб этмоқда.

**Худойберган ЖАББОРОВ,**
**ўз мухбиримиз.**
*Хоразм вилояти.*

*Урок духовности и просвещения*

# ВОДНЫЕ РЕСУРСЫ – ДЛЯ БУДУЩЕГО

**Вода – самое распространенное вещество на Земле. Однако 97,5% гидросферы приходится на соленые воды и всего 2,5% – на пресные.**

Из года в год мировые запасы пресной воды стремительно истощаются, а ее потребление постоянно растет. По данным ООН, в настоящее время дефицит водных ресурсов затрагивает более 40 % людей в мире. Прогнозируется, что если ничего не предпринимать, то к середине XXI века численность живущих при постоянной нехватке воды превысит 4 млрд человек. В связи с этим мировое сообщество для достижения целей устойчивого развития реализует меры в области комплексного управления водными ресурсами, продвижения водосберегающих проектов и программ. При этом в Докладе ООН о развитии водных ресурсов мира за 2023 год акцентируется внимание на партнерстве и сотрудничестве стран в данном вопросе, проблема рассматривается в контексте доминант «сельское хозяйство», «окружающая среда», «населенные пункты», «промышленность», «здравоохранение» и «изменение климата».

**В марте нынешнего года в штаб-квартире ООН состоялась поистине историческая конференция, посвященная водным ресурсам. Цель – дальнейшая мобилизация усилий государств на выполнение к 2030 году добровольных и согласованных на международном уровне целей и задач, связанных с водой.**

Генеральный секретарь ООН Антониу Гутерриш подчеркнул: «Вода является одним из прав человека и общим знаменателем развития для формирования лучшего будущего. Однако в сфере водных ресурсов сложилась бедственная ситуация». По его словам, человек потребляет воду «вампирически», а глобальное потепление приводит к ее испарению, что, в свою очередь, вызывает нарушение круговорота воды, разрушение экосистем и загрязнение грунтовых вод».

Узбекистан является важным партнером в решении водных проблем в Центральной Азии.

**Согласно оценкам специалистов, Центральноазиатские ледники, являющиеся основным источником воды для рек региона, в среднем теряют 0,6-0,8 % площади оледенения и 0,1 % объема в год. Сложившаяся ситуация требует принятия неотложных мер по адаптации к резким климатическим изменениям.**

Руководство нашей страны осуществляет скоординированные действия с соседними странами в рамках конструктивного сотрудничества в водных вопросах. При этом значимым элементом данного процесса является внедрение комплексного управления водными ресурсами на региональном и национальном уровнях.

Водные пути и водные ресурсы стран региона тесно взаимосвязаны. Поэтому невозможно обойтись без «водной дипломатии». Альтернативы решению водной проблемы, учитывающей в равной степени интересы стран и народов региона, – нет.

В результате проводимой прагматичной политики за последние годы между странами региона налажены доверительные отношения, ставшие основой для эффективного использования трансграничных водных ресурсов.

Узбекистан последовательно развивает сотрудничество с государствами Центральной Азии по водным вопросам в рамках Международного фонда спасения Арала (МФСА), Межгосударственной координационной водохозяйственной комиссии (МКВК), в межправительственных рабочих группах по водопользованию. В последние годы по итогам соглашений, заключенных благодаря взаимовыгодному сотрудничеству с Казахстаном, Таджикистаном, Кыргызстаном и Туркменистаном, достигнуты положительные результаты в области водного обеспечения в бассейнах рек Сырдарьи и Амударьи.

В целях повышения эффективности использования водных ресурсов, стабильного водоснабжения населения и всех отраслей экономики, улучшения мелиорации орошаемых земель, широкого внедрения рыночных механизмов и цифровых технологий в водное хозяйство утверждены Концепция развития водного хозяйства Республики Узбекистан на 2020–2030 годы, реализуется Стратегия управления водными ресурсами и развития сектора ирригации в Республике Узбекистан на 2021–2023 годы.

На основании данных документов последовательно продолжается работа по внедрению водосберегающих технологий. Деятельность, начатая в предыдущие годы, дает свои результаты за счет предоставления государством субсидий и льгот. На сегодня охват водосберегающих технологий орошения достиг 25 % от всех орошаемых площадей.

Следует отметить, в республике придается большое значение увеличению количества местных предприятий по производству оборудования и компонентов водосберегающих технологий. Если до 2019 года таких местных предприятий было всего три, то в настоящее время их уже порядка 50.

Для ведения точного учета и отчетности расходования воды, создания условий справедливого и прозрачного распределения между потребителями в водном хозяйстве внедряются современные цифровые технологии, в том числе Smart Water («Умная вода»), мелиоративные наблюдательные колодцы для отслеживания уровня подземных вод, установки онлайн-мониторинга на насосных станциях для контроля расхода воды и др.



**Однако в рамках модернизации объектов водного хозяйства, внедрения в сферу цифровых технологий, методов современного управления еще многое предстоит сделать. Как говорится, дорогу осилит идущий. Неоспоримо одно – проводимая Узбекистаном водная политика ориентирована на мудрое решение жизненно важных задач с ориентацией на будущее.**

**Радик ТУМПАРОВ,**
**соб. корр.**



*«Тўмарис издошлари»*

# КЕСКИН ВА МУРОСАСИЗ РУҲДА

**Мамлакатимиз ички ишлар органларида хизмат қилаётган аёлларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, уларнинг истеъдодларини намоён қилишлари учун қатор чора-тадбирлар кўрилмоқда.**

Бунда аёл ҳарбий хизматчилар



ва ходималарнинг маънавий ҳамда интеллектуал савиясини янада юксалтириш, касбий ва жисмоний тайёргарлигини такомиллаштириш, ҳарбий хизмат қийинчиликларига нисбатан матонатини ошириш, улар ўртасида соғлом рақобат муҳитини шакллантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Соҳа маликалари ўртасида ўтказиб келинаётган «Тўмарис издошлари» мусобақаси ҳам ана шундай эзгу мақсадларни ўзида мужассам этган.

Мусобақанинг Фарғона вилояти саралаш босқичи ҳам кўтаринки руҳда ўтказилди. Мусобақада соҳавий хизматлар ва шаҳар-туман ички ишлар бўлимларида хизмат қилаётган аёллардан иборат 4 та жамоа иштирок этиб, 6 та шарт асосида маҳорат ва қобилиятини чин маънода синовдан ўтказди.




Якунда ҳар томонлама эпчил ва чаққон қизлардан таркиб топган жамоа ғолибликни қўлга киритиб, мусобақанинг республика босқичига йўлланмани қўлга киритди.

Бир сўз билан айтганда, мазкур мусобақа соҳада хизмат қилаётган хотин-қизлар ўртасида соғлом турмуш тарзини кенг тарғиб қилиш ва жисмоний фаолликни оширишга хизмат қилди.

* * *

Тошкент шаҳар ички ишлар органларида хизмат олиб бораётган аёл ходималар ўртасида ўтказилган «Тўмарис издошлари» мусобақаси ҳам қизғин ва муросасиз тарзда ўтди.

Жамоалар совринли ўринлар учун ҳаракат қилишди. Кескин кечган баҳсларнинг якуний натижасига кўра, 1-ўринни ИИББ марказий аппарати терма жамоаси қўлга киритди. 2-ўринни эса Яккасарой тумани ИИОФМБ вакиллари эгаллади. 3-ўрин Олмазор тумани ИИОФМБ ходималарига насиб этди.

Жамоалар Бош бошқарма раҳбарияти томонидан диплом ва пул мукофотлари билан рағбатлантирилди.

**Ўз мухбирларимиз.**




**В городе Ургенче проведен областной отборочный этап республиканских соревнований «Последовательницы Тумарис».**









Сотрудницы структурных и территориальных подразделений УВД области состязались в эстафетном беге, плавании на дистанцию 50 метров вольным стилем, практической стрельбе из автомата Калашникова и пистолета Макарова, показывали навыки оказания первой доврачебной помощи, мастерство в приготовлении пищи в полевых условиях.

Сборная команда в составе победителей отборочного этапа примет участие во втором туре республиканских соревнований «Последовательницы Тумарис», который пройдет в городе Самарканде.

**Соб. корр.**

*Кинология хизмати*

# «ЛАЙЗА» ПАНД БЕРМАДИ



**Кичик инспектор-кинолог, сафдор Шоҳрух Тешабоев «Лайза» лақабли хизмат итини жуда кичиклигидан ўз тарбиясига олди. Узоқ вақт давомида амалга оширилган машқлар бесамар кетмади. Бугун «Лайза» унга портловчи моддаларни излашга ўргатилган тажрибали кўмакдош.**

– «Лайза» билан биринчи марта ҳодиса жойига борганимизда, жуда хавотирга тушгандим, – дейди лавҳамиз қаҳрамони. – Хабар «Андижон» темир йўл вокзалидан олинганди. Транспорт объектларида хавфсизликни таъминлаш бошқармасининг патруль-пост хизмати бўлинмаси ходимлари вокзалнинг кутиш залидаги ўриндиқ остига беркитилган қутини топиб олишганди.

Тегишли буйруқни олган «Лайза» шубҳали қутини ҳидлаб кўрди, сўнгра думини ликиллатди. Бу ҳаракат қутида портловчи модда йўқлигидан дарак берарди. Текширув чоғида қутидан эски пойабзал чиқди. Афтидан шаҳар атрофига қатновчи поезд йўловчиларидан бири ўзига янги пойабзал харид қилиб, эскисини вокзалда қолдириб кетган кўринади.

– Итларни ўргатиш машаққатли ва узлуксиз иш, – дейди Андижон вилояти ИИБ ЖХХ ЖТСБ Кинология бўлинмаси бошлиғи, подполковник Дониёрбек Муродалиев. – Аксарият ҳолларда кинолог тўрт оёқли дўстини энди туғилган кучукчалиги пайтидан олиб, хизмат йиллари давомида ҳар куни у билан тинмай машқлар қилади. Аввалига, табиийки, жониворлар оддий буйруқларни ўзлаштириб, сўнгра ҳар бир ит ўз ихтисослиги бўйича шуғулланади. Итлар учун «хизмат муддати» ўртача саккиз йил, лекин бу чегара эмас. У соғлиғи ва касбий маҳоратини ҳисобга олган ҳолда бундан ҳам кўпроқ хизмат қилиши мумкин. Дарвоқе, «пенсияга чиққанидан» сўнг итлар учун муносиб ҳаёт таъминланиб, улар меҳрли ва ғамхўр қўлларга топширилади.

Хизмат итлари учун кинология бўлинмаси ҳудудида барча зарур шароитлар яратилган. Икки хонали, шартли равишда қишки ва ёзги, уйқу ва дам олиш учун ажратилган кенг вольерлар ташкил этилган. Шунингдек, ҳудудда машқ қилиш майдони бўлиб, у ерда аксарият машғулотлар ўтказилади. Итларни сайр қилдириш учун ҳам етарлича катта жой мавжуд. Унча катта бўлмаган ёрдамчи хонада жониворларга егулик тайёрлаш учун мўлжалланган плита ўрнатилган. Биз кинология бўлинмасига борган куни улар учун гўшт шўрвасидан бўтқа тайёрланаётган эди. Итлар иштаҳа билан овқатланиб бўлгач, қўшимчасига суяк билан сийландилар. Ғамхўр кинологлар уларнинг емагига витаминлар ва сабзавотлар қўшиб беришади.

– Кинологга қўйиладиган ягона талаб – жониворларни севиш ва улар учун вақтини аямаслик, – дейди Кинология бўлинмаси бошлиғи. – У биринчи навбатда ички ишлар органларида хизмат қилаётганини, ундан кейин кинология билан шуғулланаётганини унутмаслиги лозим.

**Борис КЛЕЙМАН,**
**ўз мухбиримиз.**

*Андижон вилояти.*

*Спортни сев, спорт билан яша!*

# СЕРҒАЙРАТ ВА ЧАПАНИ ЙИГИТ

## кўплаб халқаро мусобақаларнинг совриндорига айланди

**Фарғона вилояти ИИБ Тезкор вазифаларни бажарувчи сафарбар отряди катта мутахассиси, сержант Лутфилла Сайдаматов спортда ютуқларга эришиб келаётган ёш ходимлардан ҳисобланади. У сўнгги 5 йил давомида спортнинг жанговар самбо тури бўйича 10 дан зиёд халқаро мусобақаларда муносиб қатнашиб, Ўзбекистон байроғини баланд кўтаришга эришди.**




Жорий йил қаҳрамонимиз учун омадли йил бўлмоқда. 24–26 март кунлари Россия Федерациясининг Москва шаҳрида «Самбо асосчилари кубоги» чемпионатида 64 кг вазн тоифасида учинчи ўринни эгаллади. 15–21 июнь кунлари Қозон шаҳрида «Динамо» спорт жамиятининг ташкил топганига 100 йил тўлиши муносабати билан спортнинг самбо ва жанговар самбо турлари бўйича ўтказилган халқаро турнирда эса олтин медаль соҳиби бўлди.

1995 йилда Қува туманида туғилган Лутфилла болалигидан спортга меҳр қўйиб, шу тумандаги болалар ва ўсмирлар спорт мактабида мураббийси Нурмуҳаммад Усмоновдан спорт сирларини ўрганди, бир қанча ютуқларни қўлга киритди.

– Доим халқаро мусобақаларда зафар қучганимда, табиийки юртимиз байроғи кўтарилиб, мадҳиямиз янграйди. Шундай лаҳзаларда юрагим тўлқинланиб кетади, – дейди чемпион йигит. – Спортдаги ютуқларим орқали Ватанимизни дунёга танитишга ҳисса қўшаётганимдан, унинг байроғини баланд кўтараётганимдан ғурурланаман.

Фарғона вилояти ИИБ Тезкор вазифаларни бажарувчи сафарбар отряди шахсий таркиби орасида Лутфилла каби моҳир спортчилар кўпчиликни ташкил этади. Жумладан, сафдор Лазизбек Муллажонов, сержант Шерзод Исмонов, сержант Низомиддин Исроилов, Ойбек Ҳайдаров каби ходимлар турли даражадаги чемпионатларда иштирок этиб, олтин, кумуш ва бронза медалларини қўлга киритиб келишмоқда.

**Абдувосит СИДИҚОВ,**
**ўз мухбиримиз.**

*Фарғона вилояти.*

### Сержант Лутфилла Сайдаматовнинг эришган ютуқлари:

– 2020 йилнинг 3–9 ноябрь кунлари Сербиянинг Нови-сад шаҳрида спортнинг жанговар самбо тури бўйича ўтказилган жаҳон чемпионатида иккинчи ўрин;

– 2020 йилнинг декабрь ойида Москва шаҳрида ўтказилган жаҳон кубогида иккинчи ўрин;

– 2021 йил июнь ойида Тошкент шаҳрида ўтказилган Осиё чемпионатида учинчи ўрин;

– 2021 йил август ойида Қирғизистон Республикасининг Иссиққўл шаҳрида бўлиб ўтган жанговар самбо бўйича халқаро турнирда биринчи ўрин – олтин медаль соҳиби;

– 2022 йил июнь ойида Ливан Республикасининг Джуния шаҳрида жанговар самбо бўйича ўтказилган Осиё чемпионатида олтин медаль.

*Киберхавфсизлик*

# ТАЪСИРЧАН ТАРҒИБОТ ВА АМАЛИЙ ҲАРАКАТ

**Наманган вилоятида 3–9 июль кунлари кибермаконда содир этилган жиноятларга қарши курашиш ҳафталигини ўтказиш ва тарғибот-ташвиқот тадбирларини ташкиллаштириш мақсадида «Кибермаконда содир этиладиган жиноятларга қарши курашиш ҳафталиги» – «Cyber-Week» комплекс тарғибот-ташвиқот тадбирлари бўйича матбуот анжумани ташкил этилди. Унда журналистларга бугунги кунда ахборот технологиялари соҳасида содир этилаётган жиноятлар ҳолати, муаммолар, келгусида биргаликда амалга ошириладиган ишлар, вазифалар хусусида ахборот берилди.**






Вилоят ИИБ бошлиғининг биринчи ўринбосари, подполковник Қаҳрамон Эргашев, ИИВ Тезкор қидирув департаменти Киберхавфсизлик маркази масъул ходими, майор Лочинбек Атоев ва вилоят ИИБ Тезкор қидирув хизмати Киберхавфсизлик хизмати бўлими бошлиғи, подполковник Бахтиёр Тожибоев бу борада амалга оширилган ишларга эътибор қаратдилар.

Наманган вилоятида 3 миллиондан ортиқ аҳоли истиқомат қилади. Фуқароларнинг кибержиноятлардан хабардорлигини таъминлаш мақсадини кўзлаган ушбу ҳафталикдан катта натижалар кутилмоқда.

Вилоятда ўтган олти ой давомида жабрланган фуқароларнинг кўрган зарари 1 миллиард сўмга яқинни ташкил этмоқда. Бу ўтган йилнинг мос даврига солиштирганда тўрт бараварга ошган. Ушбу жиноятларни 19–35 ёшлилар содир этганлигини кўриш мумкин.

Виртуал оламдаги жиноятлар, хусусан, ҳисобрақамлардаги пулларни ўмариш, пластикдан пул ечиш, ҳаволалар орқали адашиб кириб қолиш натижасида шахсга тегишли барча маълумотларни эгаллаб олиш кўпаяётгани ҳар биримиздан ҳушёр бўлишни талаб этади.

Бунда, энг аввало, тарғибот тадбирларининг самарадорлигини ошириш зарур. Бунинг учун вилоятда кенг қамровда аҳолининг барча қатламини жалб этган ҳолда, танловлар, тадбирлар ўтказиш режалаштирилди. Уларни эълон қилиш, ёритишда медиамайдондан унумли фойдаланиб, бунда журналист, блогерлар ҳам фаол бўлишлари керак.

Мактаб ўқувчиларининг таътил вақтларини мазмунли ўтказиш мақсадида вилоят Мактаб ва мактабгача таълим бошқармаси билан ҳамкорликда танловлар ўтказиш ёш авлоднинг бу борадаги билимларини бойитишга хизмат қилади. Вилоят ИИБ билан ҳамкорликда барча профилактика инспекторларини жалб этган ҳолда, улар ўртасида ҳам танлов ташкил этилмоқда. Бунда улар ўзлари фаолият олиб бораётган ҳудуд аҳолисини қамраб олиши кўзда тутилган.

Олий ўқув юртлари талабалари ўртасида инновацион ёндашув, ишланмалар, ижодий ишлар танловида ҳар бир талабанинг фикри ўрганилади, уларнинг иқтидорларини намойиш этишлари учун шароитлар яратиб берилади. Бундан ташқари, аҳоли гавжум жойлар шифохоналар, оилавий поликлиникалар, давлат хизматлари марказлари, бозорларда тарғибот ҳаволаларини жойлаштириш мумкин.

Ҳафталик доирасидаги тадбирлар водий вилоятлари Фарғона ва Андижонда ўтказилганда самарадорликка эришилган. Биргина Андижон шаҳар ИИОФМБ фаолияти ўрганилганда ҳафталикдан сўнг кибержиноятлар бўйича мурожаатлар сони кескин камайган.

Матбуот анжуманида вилоят ОАВ вакиллари томонидан жўяли таклифлар, мулоҳазалар билдирилди. Хусусан, танлов ғолибларини аниқлашда шаффофлик, холисликка эътибор қаратиш зарурлиги таъкидланди.

Тадбир сўнгида ҳафталик доирасида қилинадиган ишлар ва вазифалар белгилаб олинди.

**Гулчеҳра БУВАМИРЗАЕВА,**
**ўз мухбиримиз.**

*Наманган вилояти.*

*Кибербезопасность*

# БУДЬТЕ БДИТЕЛЬНЫ!

**Мы живем в динамичном мире. Цифровые информационные технологии развиваются стремительно. Трудно представить нашу повседневность без телекоммуникационных сетей, интернета, которые, бесспорно, предоставляют дополнительные удобства и возможности. Однако в виртуальной среде параллельно возникают и новые угрозы…**

Гражданка А. Н. обратилась в МВД Республики Каракалпакстан. В заявлении она указала, что неизвестный владелец профиля прислал ей ее фотографии и требует 5 миллионов сумов, пригрозил – если деньги не получит в ближайшее время, распространит фотографии в социальных сетях. Злоумышленник также написал, что деньги следует перевести на пластиковую банковскую карту, принадлежащую некоему У. А.

В ходе специальных мероприятий А. Н. перевела на указанную карту 200 тыс. сумов. Сотрудники вышли на У. А., однако тот дал показания, что ему позвонил приятель Ж. Х., спрашивал номер банковской карты, сказал, что туда должны поступить деньги, их необходимо будет обналичить и отдать ему…

В момент получения обналиченных 200 тысяч сумов гражданин Ж. Х. заявил сотрудникам, что денежные средства должен передать третьему лицу по имени С. Н.

Специальное мероприятие продолжилось. Ж. Х. встретился с С. Н. в одном из кафе Кунградского района. Автор многоходовой схемы, 1985 года рождения, был задержан при получении денег. Следственным отделом при Кунградском РОВД возбуждено уголовное дело.

Вывод из изложенного: пользуясь современными гаджетами, необходимо проявлять осторожность и бдительность. На кону могут стоять ваши деньги и репутация.

**Даулетнияз СЕЙТМУРАТОВ,**
**майор.**
**Азамат ПИРНИЯЗОВ,**
**соб. корр.**

*Республика Каракалпакстан.*

*Инсон қадри учун*

# ҲАР БИР ХОДИМ ЭЪТИБОРДА

**ИИВ Транспорт ва туризм объектларида хавфсизликни таъминлаш департаменти Самарқанд вилояти Транспортда хавфсизликни таъминлаш бошқармаси бошлиғининг маънавий-маърифий ишлар бўйича ўринбосари, майор Аслом Абдурасулов хизмат интизоми ва қонунийликни мустаҳкамлаш, ходимларнинг маънавий дунёқарашини юксалтириш, касбий маҳорати ва билим даражасини ошириш каби зиммасига юклатилган вазифаларни бекам-кўст бажаришга ҳаракат қилади.**



Қаҳрамонимиз дастлаб қўриқлаш хизматида, кейин Пахтачи туманида профилактика инспектори вазифасида ишлади. Шахсий таркиб билан ишлашни эса 2017 йилда Иштихон тумани ИИБ кадрлар масалалари бўйича катта инспектори этиб тайинланганидан кейин бошлади. Раҳбарият томонидан берилган топшириқларни ўз вақтида, астойдил бажариб, ҳамкасбларига ўрнак бўлган Аслом Абдурасулов 2021 йилда ҳозирги лавозимига тайинланди.

Бу иш бир қарашда осондек туюлиши мумкин, бироқ аслида шахсий таркиб билан ишлаш жиддий эътиборни талаб қилади. Айниқса, ходимлар ўртасида интизомий ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш хизмат самарадорлигини оширишнинг муҳим омилидир.

– Мен учун одатдаги иш куни ходимлар билан суҳбатдан бошланади, – дейди майор А.Абдурасулов. – Жамоадаги ҳар бир ходимнинг ўзига хос феъл-атвори ва ўзгарувчан кайфияти бор. Вазиятга қараб, уларнинг ҳар бирини эшитиш, жоиз бўлса, маслаҳат ва амалий ёрдам бериш лозим. Ходимларни ижтимоий ҳимоя қилиш, рағбатлантириш, эҳтиёжмандларни уй-жой билан таъминлаш доим диққатимиз марказида. Ўтган йили 3 нафар ходимга уй-жой берилди. Масалан, капитан Меҳрож Яхшибоев Ургут туманидаги ота-онасининг уйида яшарди. Ҳар куни эрталаб ишга келиши, кечқурун уйига қайтиб кетиши учун 70 километрдан ортиқ йўл босарди. Эндиликда у оиласи билан Самарқанд шаҳридаги янги қурилган уйда истиқомат қиляпти.

Таъкидлаш керакки, бошқарма ходимларининг бўш вақтини мазмунли ўтказиш мақсадида улар иштирокида тез-тез спорт мусобақалари ташкил этилади. Беллашувларга уларнинг ота-оналари, рафиқалари ҳам таклиф қилинади. Бундай учрашувлар нафақат жамоани бирлаштиради, балки оилалар билан яқиндан танишиш, ходимларнинг яқинларини ўйлантираётган муаммоларни ўрганишга ҳам ёрдам беради. Бундан ташқари, кун тартибига спорт билан шуғулланиш ҳам киритилган бўлиб, ходимлар жанговар шайлигини ошириш, жисмоний имкониятларини кенгайтириш мақсадида ҳафтада икки марта «Локомотив» стадионида ўтадиган спорт машғулотларида жам бўлишади.

**Замира БОЛТАЕВА,**
**ўз мухбиримиз.**
*Самарқанд вилояти.*

*Қоровул қўшинларида*

# КАСБИНИ УЛУҒЛАГАН КАМ БЎЛМАС!

– Адашмасам, 14 ёшларда эдим. Бир куни мактабдан қайтаётганимда маҳалладаги одамлар Абдулла акага ёрдам бериш керак, деган ҳайқириқ билан шошганча унинг уйи томон югуради. Кейин билсам, бу кишининг хонадонидан ёнғин чиқиб, ўзи уйнинг ичида қолиб кетган, оила аъзолари эса қўшимча томорқасида ишлагани кетишган экан. Абдулла ака бир неча йил аввал автоҳалокат сабабли ногирон бўлиб, тўшакка михланиб қолганди. Табиийки, ёнғин пайти уйидан чиқа олмаган.

Қўни-қўшнилар челаклаб сув сепиб, белкуракда тупроқ отарди. Улар қанчалик ҳаракат қилишмасин, шамол борган сайин оловни кучайтирарди. Ана шундай таҳликали бир паллада яқинда ҳарбий хизматдан қайтган амаким ўйлаб ҳам ўтирмасдан, деразани тепиб синдирди-да, ичкарига кириб кетди. Бироздан сўнг у Абдулла акани соғ-омон аланга ичидан олиб чиқди. Шундан кейин бутун маҳаллада «Фалончининг ўғли қаҳрамон. Барибир, армияга борган бола билинади-да», деган гап тарқалди. Бу эса менинг қалбимда ҳарбий хизматга иштиёқ уйғотди,– дейди майор Муҳаммадали Аблақулов.



Йиллар ўтгани сари, бу қизиқиш янада кучайиб, уни ўз устида мукаммал изланишга чорлади. Тошкент вилоятининг Ўрта Чирчиқ туманида таваллуд топган бу йигит оилада 4 ўғилнинг учинчиси бўлиб, отаси уларни ҳалол меҳнат қилишга, билим олишга, қисқа қилиб айтганда, эл корига ярайдиган жонкуяр инсон бўлишга ўргатганди.

Аввал акаси, сўнгра эса ўзи ҳарбий хизматга кетиб, шартнома асосида ўша ерда қолади. Ота-онасининг дуолари туфайли ИИВ Тошкент олий ҳарбий техника билим юртини муваффақиятли тамомлаган Муҳаммадали илк фаолиятини Навоий вилоятидаги 7532-ҳарбий қисмда гуруҳ командири лавозимида бошлади. Устозларидан касб маҳоратини пухта ўрганиб, хизмат пиллапоясидан кўтарила борди.

Тизимда 15 йиллик тажрибага эга бўлган қаҳрамонимиз айни пайтда ИИВ Қоровул қўшинларига қарашли Навоий вилоятида жойлашган 7551-ҳарбий қисм командирининг тарбиявий ва мафкуравий ишлар бўйича ўринбосари лавозимида фаолият олиб бораётир.

– Ҳарбий қисмда ташкил этилган мўъжаз кутубхонада 2 мингга яқин адабиётлар мавжуд. Ҳарбий хизматчилар бўш вақтларида ушбу кутубхонага келиб, ўзларининг маънавий салоҳиятини янада ошириш имконига эга бўлишмоқда, – дейди М. Аблақулов. – Мазкур зиё маскани бадиий асарлар билан бир қаторда ҳарб илмига оид ҳамда тарихий китоблар билан ҳам етарли даражада таъминланган.

**Маҳлиё ХОЛОВА,**
**ўз мухбиримиз.**
*Навоий вилояти.*

*Иккинчи истеъдод*

# УНИНГ ИСТИҚБОЛИ ПОРЛОҚ

**Жиззах вилояти Арнасой тумани ИИБ ҳузуридаги Тергов гуруҳи суриштирувчиси, лейтенант Хумора Исломова масъулиятли ва мураккаб хизмат вазифаларидан ортиб, шеър ёзмоққа ҳам вақт топа олади. Хуморада адабиётга, назмга муҳаббатни мактабда она тили ва адабиёт фанидан дарс берган онаси Феруза Мирзақулова уйғотган.**

Жиззах давлат педагогика институти қошидаги 2-сонли академик лицейда ўқиб юрган кезлари бир воқеа юз бермаганида, ҳозирда балки онаси каби тил ва адабиёт ўқитувчиси бўлармиди?..

2017 йилда у билим олаётган таълим муассасаси ИИВ Жиззах академик лицейига айлантирилди. Натижада кўплаб тенгдошлари қатори, Хуморанинг қалбида ҳам ички ишлар органлари ходими бўлиш орзуси пайдо бўлди. Ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари фаолиятига оид сабоқлар ҳамда қатъий тартиб-интизомга асосланган ҳаёт тарзи ёшларни келажак режаларини ўзгартиришга ундаганди.

Шундан сўнг Хумора Исломова ИИВ Академиясида ўқишида кўл келадиган фанларни ўзлаштиришга астойдил киришди. Пировардида ўша йилларда у сардорлик қилган лицей жамоаси «Сиз қонунни биласизми?», «Бахтиёрлар диёри» кўрик-танловларининг республика босқичида 1-ўринни қўлга киритди. 2019 йилда Хумора Исломова ИИВ Академияси курсантлари сафидан жой олди ва соҳа сирларини пухта эгаллашга ҳаракат қилди.

Табиийки, илм йўлидаги саъй-ҳаракатлари муносиб баҳоланиб, икки марта Академия раҳбариятининг ташаккурномаси билан тақдирланди. Унинг ота-онасига миннатдорлик хати йўлланди.



2022 йилда Академияни имтиёзли диплом билан тамомлаган Хумора Исломова Жиззах вилояти Арнасой тумани ИИБ ҳузуридаги Тергов гуруҳи суриштирувчиси лавозимида хизматни бошлади. Айни пайтда олий ўқув юртида эгаллаган билимларини амалиётда қўллаш билан бирга, суриштирув ва тергов ўтказишга оид тажрибаларини оширмоқда.

Айтиш жоиз, ўтган қисқа давр мобайнида мақоламиз қаҳрамони ўзини билимли ва тиришқоқ ходим сифатида намоён эта олди. Шунга яраша самарали фаолияти учун ИИВ ҳузуридаги Тергов департаментининг Фахрий ёрлиғи билан тақдирланди. Қолаверса, ички ишлар органлари ходимлари ўртасида ўтказилаётган кўрик-танлов, мусобақа ва интеллектуал ўйинларда фаол қатнашиб, юқори натижаларга эришмоқда.

Чунончи, 2022 йил декабрь ойида вилоят ички ишлар органлари ходимлари иштирокида уюштирилган «Конституция билимдонлари» кўрик-танловининг вилоят босқичида 1-ўринни қўлга киритди. Шу билан бирга, турк тилини ўрганаётир. Хуллас, Арнасойда шундай истиқболли лейтенант фаолият кўрсатяпти.

**Алижон АБДУСАТТОРОВ,**
**ўз мухбиримиз.**

*Жиззах вилояти.*

## ЎЙЛАРИМ...

*Кечалар кўп эртак эшитар эдим,*
*Ўйларим ул дамни ёдимга солди.*
*Энди болалигим мендан йироқда,*
*Ўшал нурли тунлар*
*қайларда қолди?..*

*Мурғак юрагимда минг*
*битта савол,*
*Ҳар эртак якунин интиқ*
*кутардим.*
*Муродига етган қаҳрамонлардек,*
*Мен ҳам омад-бахтни орзу*
*этардим.*

*Энди бунинг бари олис ўтмишда,*
*Анча йил ўтибди орадан, мана.*
*Айт, қалбим, ул дамни*
*қўмсаб шу бугун,*
*Соғинчлар қўлингдан*
*тутдими яна?*

*Ёзаман, оқ қоғоз*
*дардкашим менинг,*
*Туйғулар тўкилар унга бирйўла.*
*Болаликнинг завқли*
*онин эсладим,*
*Эртакдай беғубор*
*ҳисларим ила...*

*Хумора ИСЛОМОВА,*
*лейтенант.*

*Ота-оналарга тавсиялар*

# ТАЪТИЛДА БОЛАЖОНЛАР НИМА БИЛАН МАШҒУЛ?

**Ёзги таътил даврида болаларга мазмунли дам олиш, ўрганиш ва шахсий ривожланиш имкониятларини тақдим этиш муҳим ҳисобланади. Шу боис ҳам ота-оналарга фарзандларининг ёзги таътилдан унумли фойдаланишлари учун қуйидаги тавсияларни берамиз.**

### Ўрганиш ва изланишга рағбатлантириш

Фарзандингизни китоб ўқишга ундanг. Янги китобларни кашф қилиш ёки уйда қулай ўқиш бурчаги яратиш учун кутубхонага бирга боринг.

Интерфаол ўқув иловалари, виртуал курслар ёки таълим веб-сайтлари каби фарзандингиз манфаатларига мос келадиган таълим фаолияти ва онлайн ресурсларни топиб, саралаб уларга тавсия қилинг. Бу уларга янги кўникмаларни ривожлантиришга ва билимларини қизиқарли тарзда кенгайтиришга ёрдам беради. Шунингдек, музейлар, илм-фан марказлари, тарихий жойлар ёки табиат қўйнига саёҳатларни режалаштиринг.



### Жисмоний фаоллик ва саломатликни ривожлантириш

Фарзандингизни ўзи ёқтирадиган жисмоний машқлар ва спорт билан шуғулланишга қизиқтиринг. Бу сузиш, велосипедда, пиёда сайр қилиш, жамоавий спорт турлари ёки дўстлар билан очиқ ҳаводаги ўйинлар бўлиши мумкин. Табиат қўйнида сайр қилиш ва дам олиш ёки чўмилиш ҳавзаларига бориш каби оилавий саёҳатларни режалаштиринг.

Соғлом овқатланиш одатларини рағбатлантиринг ҳамда болангизни овқатни режалаштириш ва тайёрлашга жалб қилинг. Уларга тўйимли озиқ-овқат танлови ва тўғри таомланишнинг аҳамиятини тушунтиринг.

### Шахсий ўсиш ва севимли машғулотларига ёрдам беринг

Фарзандингизга унинг қизиқишлари ва севимли машғулотларига эришишда ёрдам беринг. Унга расм чизиш, мусиқа асбоби чалиш, овқат пишириш ёки боғдорчилик каби янги севимли машғулотларини ўрганишга ёки мавжудларини ривожлантиришга кўмаклашинг.

Улар билан биргаликда эришиш мумкин бўлган мақсадларни қўйинг. Хоҳ у янги маҳоратни ўргансин, хоҳ лойиҳани якунлаш ёки ижодий танловда иштирок этсин – бу болаларга рағбатлантириш бўлади, шу билан бирга, муваффақият ҳиссини ҳам туяди.

Кўнгилли бўлиш ёки жамоат ишларида, масалан, қаровсиз қолган мушукларни овқатлантириш, яшаш ҳудудингизни чиқиндилардан тозалаш кабиларда қатнашиши учун имконият яратинг. Бу уларда ижтимоий масъулият ва мақсад туйғусини ривожлантиришга ёрдам беради.

### Муносабатларни мустаҳкамлаш

Фарзандингиз билан бирга бўлиш учун албатта вақт топинг ва бунга жиддий қаранг. Оилавий ўйинлар, кино кечалари ёки қисқа саёҳатларга бориш каби биргаликда завқланишингиз мумкин бўлган махсус тадбирларни режалаштиринг. Улар билан мазмунли суҳбатлар ўтказинг, қизиқишлари, орзулари ва тажрибалари ҳақида сўранг. Фарзандларингизни диққат билан тингланг, уларнинг фикрлари ва ҳис-туйғуларига самимий қизиқиш билдиринг.

Бундан ташқари, фарзандингизни қарор қабул қилиш жараёнларига, масалан, оилавий тадбирлар ёки таътилларни режалаштиришга жалб қилинг. Бу унда масъулият ҳиссини уйғотади.

Эсингизда бўлсин, ҳар бир бола ўзига хос, шунинг учун ёзги машғулотларни режалаштиришда уларнинг шахсий қизиқишлари ва эҳтиёжларини ҳисобга олиш муҳимдир. Болангизнинг ёзги таътил пайтида дам олиш, кашф қилиш ва ўсишига имкон беринг.

**Мирзоқул АҲАДОВ, ўз мухбиримиз.**

*Бухоро вилояти.*

*Молодежь – наше будущее*

# ПОМОЧЬ ОБРЕСТИ ВЕРУ В СЕБЯ

**Инспектор-психолог по вопросам несовершеннолетних ОПП УКД ОВД Юнусабадского района столицы 23-летний лейтенант Исмоил Йулдошев с утра совершает обход вверенных школ, беседует с педагогами, начинает индивидуальную работу с подопечными подростками.**

Первым своим наставником Исмоил считает отца – Хусниддина Мухаммадиева, подполковника в отставке, проработавшего в органах внутренних дел более 30 лет. С детства он воспитывал в сыне честность, справедливость, стремление к самосовершенствованию. После уроков Исмоил посещал секцию дзюдо, затем до позднего вечера корпел над учебниками. Огромна заслуга в становлении личности, всестороннем развитии нашего героя конечно же мамы – Умиды Ибадуллаевой, преподавателя английского языка Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана. Гармоничные отношения родителей и сына, уважительное отношение друг к другу сыграли свою роль в духовном развитии юноши.



**Исмоил Йулдошев в минувшем году с отличием окончил Ташкентский государственный юридический университет и поступил на службу в органы внутренних дел. Сейчас в его ведении четыре школы, где он осуществляет профилактическую работу среди подростков.**

...Во время очередного обхода лейтенант И. Йулдошев установил, что ученик восьмого класса Алишер нерегулярно посещает занятия, грубит педагогам. Не откладывая дело в долгий ящик, вместе с учителями и представителями махаллинского схода граждан инспектор посетил маму подростка, чтобы узнать, в чем причина такого поведения ребенка. Оказалось, в школе ровесники дразнили мальчика за нерешительность и, якобы, слабохарактерность. А матери было «не до сына», она занималась «устройством личной жизни», и Алишер замкнулся в себе. С родительницей провели профилактическую беседу. Затем инспектор, собрав одноклассников подростка, поговорил с ними по душам, привел реальные примеры того, чем может закончиться буллинг. Работа принесла свои плоды – Алишер стал спокойнее, увереннее, у него появились новые друзья, увлечения.

Лейтенант Исмоил Йулдошев любит свою профессию. Он чувствует ответственность за ребят, видит, что они искренни с ним, делятся своими достижениями и планами. А это, согласитесь, дорогого стоит.

**Бибигуль МУРТАЗАЕВА.**

*Противодействие торговле людьми*

# НАДЕЖНЫЙ ЗАСЛОН

**Торговля людьми – преступление, нарушающее права человека на жизнь, безопасность, быть свободным от жестокого, унижающего достоинство обращения. В Узбекистане развернут широкий фронт борьбы с этим социальным злом.**

В международном аэропорту Ферганы сотрудниками подразделения по борьбе с торговлей людьми УУР УВД Андижанской области во взаимодействии с коллегами проведено мероприятие, в ходе которого предотвращена попытка отправки двух девушек в город Казань Российской Федерации для занятия проституцией.

До этого оперативники получили информацию, что жительницы Кургантепинского района Гульнора Исмаилова и Саида Махкамова (здесь и далее имена и фамилии фигурантов изменены), ранее судимые за сводничество, входят в доверие к молодым, временно не работающим девушкам, обещают хорошо оплачиваемую работу в России, дают им с условием возврата по 400 долларов США. Цель злоумышленниц – отправить девушек в Казань, где их должна встретить уроженка Кургантепинского района Азиза Кодирова, содержащая притон разврата.



Жительницам Ханабада Нилуфар Ахмедовой и Мунисе Холдоровой помогли сотрудники органов внутренних дел. Они не дали продать их в сексуальное рабство. В отношении Г. Исмаиловой и С. Махкамовой возбуждено уголовное дело по ч. 2 ст. 135 УК Республики Узбекистан, проводятся следственные действия.

А вот другим девушкам, оказавшимся в трудной жизненной ситуации, повезло меньше. Жительница областного центра 30-летняя Барчиной Худойкулова обещала им работу и крышу над головой. Женщина забрала документы, всячески угрожая, заставляла заниматься проституцией на съемной квартире, получая с любвеобильных клиентов крупные суммы денег.

Неизвестно, сколько бы это продолжалось, если бы девушкам не удалось сбежать и обратиться в органы внутренних дел.

Б. Худойкулова задержана. В отношении нее возбуждено уголовное дело по пунктам «а» и «б» ч. 2 ст. 135 УК Республики Узбекистан. Ведется следствие.

**Торговля людьми – общественно-опасное деяние, за совершение которого законом предусмотрено суровое наказание. Ошибаются те, кто думает, что, совершив чудовищное – продав человека, они избегут наказания.**

**Жамолдин МИРЗАРАХИМОВ, майор.**

*Андижанская область.*

Kinotalqin

# O'ZBEK QIZLARINING QAHRAMONLIGI



**Xotin-qizlarning dala yumushlari ila mashg'ulligi-yu erkaklar zimmasidagi ishlarni gardaniga olishi bilan boshlanadigan «O'zbek qizi» badiiy filmi sizning dahshatli Ikkinchi jahon urushi haqidagi tasavvurlaringizni yanada boyitadi.**

Mazkur film har doim tilimiz uchida turadigan ota-bobolarimizning jasoratga to'la hayoti haqida emasligi, Ikkinchi jahon urushida momolarimiz ham ulardan kam aziyat chekmagani, ulardan kam qahramonliklar ko'rsatmaganini bizga yorqin bo'yoqlarda aks ettirgani uchun ham millionlab tomoshabinlar qalbidan joy oldi.

«O'zbek qizi» badiiy filmining katta premyerasi shov-shuvlarga sabab bo'ldi. Qaynona-kelin, er-xotin, boy-kambag'al munosabatlari, qolaversa, kundalik hayotimizdagi maishiy muammolar va yana xiyonat, sotqinlik singari bo'rttirilgan voqealardan zada bo'lgan tomoshabinlarning beixtiyor «Bo'lar ekan-ku!» degan xitobiga mos film bo'ldi, desak, mubolag'a emas. Unda Ikkinchi jahon urushida o'zbek xotin-qizlarining jang maydonlarida ko'rsatgan qahramonliklari bosh qahramon Jamila timsolida namoyon bo'ladi. Filmning jang sahnalari Belarus Respublikasining Minsk shahrida suratga olingan.



«Cinema of Central Asia» va Belarus Respublikasining «Parason Production» kinostudiyalari tomonidan suratga olingan filmda bosh rollarni aktyorlar Aysanem Yusupova, Feruza Saidova, Yigitali Mamajonov, Sergey Lapanitsin, Oleg Taktarov va boshqalar ijro etgan.

Ushbu film yozuvchi Baxtiyor Abdug'afurning «Uzbechka» asari asosida rejissyor Akbar Bekturdiyev tomonidan suratga olingan.

– Asarim asosida ishlangan film premyerasida bo'ldim, – deb yozadi Baxtiyor Abdug'afur o'zining Facebookdagi sahifasida. – Asar uch marta nashr etilgan, avvalgi ikki nashri «Yangi asr avlodi», uchinchisi «Kitobdor» nashriyotida dunyo yuzini ko'rdi, umumiy adadi 16 ming nusxadan oshdi. Ruschaga tarjima qilinib, Moskvadagi «Veche» nashriyotida 3000 nusxada chop etildi.

Filmni tomoshabinlar orasida o'tirib ko'rdim. Bosh qahramon – Jamilaning har safar qahramonligini odamlar olqishlar bilan kutib oldi. Bundan shunday xulosaga keldimki, odamlar QAHRAMONlar timsolida o'z jasoratini ko'radi! Bundan g'ururlanadi, faxrlanadi. Demak, xalqqa o'zini eslatish kerak ekan. Xalq o'zini aftodahol, bechora, ojiz ko'rmasin. MILLIY QAHRAMONlar qiyofasi har qachongidan-da muhimligini chuqur his qildim.

Xalqning g'ururini ko'tarish hozirgi shiddatli dunyoda har qachongidan-da muhim. Har qanday davlatning tayanchi, eng avvalo, XALQ!...

Darvoqe, «O'zbek qizi»dan «Uzbechka»ning farqi borligini yozishyapti. Albatta, asarning filmga aylanishida qator o'zgarishlarga uchrashi bor gap. Bu safar ham shunday bo'ldi. Nasib qilsa, balki asar to'liqligicha serial qilinib ishlanar...

Bevosita filmga qaytadigan bo'lsak, bosh qahramon chorasizlik oldida qoladi. Xalq mulkiga talafot yetkazgani uchun rais bu ishni bosti-bosti qilish evaziga o'ziga erga tegishni taklif qiladi. U hech kimga bildirmay frontga jo'naydi.«Uzbechka» asarida Jamila tog'asining ov miltig'iga qiziqib, otishga havas qilishi, hech bo'lmasa hamshira sifatida urushga ketishga qaror qilishi, bolalik yillari badiiy bo'yoqlarda ifodalangani kitobxonni qiziqtiradi. Garchi kinoda bosh qahramonning dastlabki sahnalardayoq nemislarning bombardimonchi samolyotini urib tushirgani biroz ishonarsiz chiqqanday tuyulsa-da, bu film muvaffaqiyatiga unchalik soya solmaydi. Aksincha tomoshabinda bosh qahramonga nisbatan ishonch va muhabbat tuyg'usini mustahkamlaydi.

Balki film romanda yozilganidek Jamilaning bolaligidan ovlarda ishtirok etgani haqidagi sahnalarni keng qamrab olganida bu kabi mavhum savollarga o'rin qolmagan bo'lardi...«O'zbek qizi» filmini ko'pchilik tomoshabin ko'rgani uchun undagi voqealarga to'xtalmagan holda tariximiz, qahramonlik va jasorat namunalarini ko'rsatgan ajdodlarimiz haqidagi asarlarni xalqimiz, tomoshabinlarimiz har doim quvonch bilan kutib olishini alohida ta'kidlashni istardik. Shonli va boy tariximizda o'zlarining qahramonliklari bilan yosh avlodda vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otadigan ajdodlarimiz juda ko'p. Ularning faoliyati haqida asarlar yozish, filmlar ishlash o'z navbatida yozuvchilarimiz va rejissyorlarimiz zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

**Sherzod ABDUSAMADOV
tayyorladi.**

*Заррабин остида*

# РАД ЭТИБ БЎЛМАС ДАЛИЛ

**Жорий йилнинг 25 май санасида пойтахтнинг Учтепа туманида жойлашган савдо мажмуаларидан бирида ўғрилик жинояти содир этилди. Воқеа жойига етиб борган Тошкент шаҳар Учтепа туман ИИОФМБ тергов-тезкор гуруҳи таркибида эксперт-криминалистика бўлими ходими ҳам бор эди. Жиноят содир этилган жойдан олинган бармоқ излари орқали 2006 йилда таваллуд топган Н.Ш. қўлга олинди. Рад этиб бўлмас далил олдида ожиз қолган жиноятчининг барча қилмишини тан олишдан бошқа чораси қолмайди.**

– Ўтган олти ой давомида қўл бармоқ излари орқали 6 та жиноят фош этилди, – дейди туман ИИОФМБ ЭКБ бошлиғи, подполковник Зайни Аширов. – Шунингдек, 438 та жиноят жойи кўздан кечирилган, 80 та турли экспертизалар бажарилган ва 7 та фоторобот тузилган.

Бундан ташқари, бўлимга олиб келинган шахсларнинг қўл бармоқ излари ва суратлари «СОНДА», «ДОСЬЕ» дастурларига киритиб борилмоқда. Бу эса, ўз навбатида, жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ҳамда содир этилганларининг «иссиқ изида» очилишида ижобий натижа бермоқда.

Эксперт-криминалистика фаолиятининг самарадорлигига эришишда соҳага замонавий технологияларни жорий этиш баробарида, ходимларнинг касбий билим ва малакасини оширишнинг ҳам аҳамияти беқиёс. Ходимлар режа асосида ўқув-малака курсларида таҳсил олиб, дактилоскопия, трасология, портрет ҳамда хатшунослик, совуқ қуроллар юзасидан тадқиқотлар ўтказиш бўйича сертификатларга эга бўлишмоқда.

Тезкор ва самарали фаолият олиб бориш учун бўлимда барча шарт-шароитлар яратилган. Замонавий компьютер воситалари, фотоаппаратлар ҳамда бошқа махсус жиҳозлар жиноят жойидан керакли ашёвий далилларни топиш, ҳар қандай жиноятни ишончли далиллар билан исботлашда қўл келмоқда. Бошқача айтганда, далилларни тўплашда фан-техниканинг замонавий ютуқларини, хусусан, илғор криминалистик услуб ва воситаларни қўллаш имконини бермоқда.

Катта лейтенант Алишер Маҳамадаминов яқинда Тошкент шаҳар ИИББ идора ва тизимларида фаолият юритаётган ёш ходимлар ўртасида ўтказилган «Ҳарбий эстафета» мусобақасида фаол қатнашди. Мусобақада туман ИИОФМБ жамоаси пойтахт ИИББ идора ва тизимлари ўртасида фахрли биринчи ўринни қўлга киритишга муносиб ҳисса қўшди.



Ҳозирда бўлимда замонавий илм-фан ютуқларидан бири ҳисобланган «Polifase» компьютер техникаси ўрнатилган. Унинг ёрдамида фото ва видеотасвир орқали гумонланувчининг шахсини идентификация қилиб, тезда унинг кимлигига аниқлик киритилади. Ушбу рақамли техниканинг имконияти кенг бўлиб, юзини бекитиб олган кимсани ҳам таниб олиш хусусиятига эга.

«Papillon» рақамли технология орқали эса республика миқёсида базага киритилган қўл-бармоқ излари маълумотларидан фойдаланиш мумкин. Олдинлари бу жараёнларни ҳал этиш учун шаҳар ИИББ ёки вазирликка мурожаат қилишга тўғри келар эди. Ҳозирда барчаси туман ИИОФМБ ЭКБнинг ўзида бажариляпти. Бу эса жиноятнинг тез фош этилишида қўл келмоқда.

**Сарвар СОБИРОВ,**
**ўз мухбиримиз.**
*Тошкент шаҳри.*

*Одам савдоси – олам муаммоси*

# ЧУВ ТУШИШИГА БИР БАҲЯ ҚОЛГАНДИ....

**Аҳён-аҳёнда ижтимоий тармоқлар, радио ёки телевидение орқали одам савдоси қурбонлари ҳақида хабарга кўзимиз тушади. Ҳа, орамизда ана шундай жиноят турини сердаромад бизнес манбасига айлантириб, машаққатларсиз мўмай пул топишга уринаётган кимсалар учраб туради.**

Карманалик 22 ёшли Сабина (исмлар ўзгартирилди) фарзандли бўлгач, турли оилавий келишмовчиликлар сабабли турмуши бузилди. Ногирон отаси ва кунлик ишдан даромад оладиган онаси унинг бу қарорини маъқуллашмади. Балки шу сабаб бўлдими, Сабина хорижда ишлашга қарор қилди. Мутасаддилар унинг муаммосидан хабар топиб, туман касалхонасига ҳамшира вазифасига ишга жойлаштиришди.



У ишга кирганига кўп бўлмай жиззахлик Нафосат исмли тенгдоши билан телеграм ижтимоий тармоғи орқали танишиб қолди. Аммо бу топишув яхшиликка олиб келмади. Гап шундаки, Нафосат ёш қизларни ёлғон ваъдалар билан чет элга жўнатиб, эвазига хориждаги «бошлиқ»лардан улуш оларди. Янги танишига ҳам хорижда ишласа, катта маош олиши ва тўкин ҳаёт кечиришини айтиб авради.

Сабина нима бўлсаям кетишим керак деб ота-онасига ҳали бир ёшга тўлмаган қизчасини ташлаб йўлга чиқди. Унинг чув тушишига бир баҳя қолди. Хайриятки, бундай ғайриқонуний қилмишларга қарши курашувчи соҳа вакиллари бор. Уларнинг саъй-ҳаракатлари билан Сабина одам савдоси қурбонига айланмади. Нафосат эса қилмишлари учун қонун олдида жавоб беришга мажбур бўлди.

Хатирчилик Дилфуза бир йигит билан аҳди паймон қилиб, никоҳсиз фарзандлик бўлишди. Туғилган чақалоқ – паҳлавондай ўғил онасидан ҳам, дом-дараксиз кетган отасидан ҳам меҳр кўрмай 4 ойлик бўлди. Дилфузанинг онаси эса қизини гап-сўзлардан қутқариш учун набирасига харидор излай бошлади. Уни фарзандликка олишга жон дилидан рози кишилардан эса 400 АҚШ доллари талаб қилди. «Ҳеч замонда она боласидан кечадими?» дерсиз. Афсуски, шунақалар ҳам бор экан. Дилфуза ҳам боласини сотишга рози бўлиб, харидорлар билан кўришди. Хайриятки, савдо амалга ошмади. Кўзи мунчоқ бола бугун давлат ҳимоясида. Дилфуза эса оналик ҳуқуқидан маҳрум қилинибгина қолмай, қонуний жавобгарликка ҳам тортилди.

Навоий вилояти ИИБ ЖҚБ Одам савдосига қарши курашиш бўлинмаси ходимлари томонидан мунтазам олиб борилаётган тарғибот тадбирлари, хусусан, учрашувлар, якка тартибдаги суҳбатлар, аҳолини огоҳликка чақирувчи турли роликлар ўз самарасини кўрсатмоқда. Ўтган йилнинг мос даврига нисбатан жорий йилда одам савдоси билан боғлиқ ҳолатларнинг камайишига эришилди. Аммо гап инсон қадр-қиммати, эркинлиги ҳақида борар экан, бундай натижа билан мақтаниб бўлмайди. Шу боисдан айни пайтда ушбу жиноятчиликка қарши курашиш, юқоридаги ҳолатларга чек қўйиш мақсадида тарғибот тадбирлари вилоятнинг барча ҳудудларида олиб борилмоқда.

– Чақалоқ савдоси, ёш қизларнинг, эр-йигитларни алданиши ва мажбурий меҳнатга жалб қилинишининг олдини олиш борасида олий таълим муассасалари, туғуруқхоналар ва меҳнат ташкилотларида режа асосида, тизимли равишда тарғибот тадбирларини ўтказяпмиз, – дейди вилоят ИИБ ЖҚБ Одам савдосига қарши курашиш бўлинмаси бошлиғи, подполковник Н. Ашуров. – Бу борада республика «Истиқболи авлод» нодавлат нотижорат ташкилотининг Навоий вилояти бўлими билан яқиндан ҳамкорлик қиляпмиз. Келгусида фуқароларнинг мазкур жиноят қурбонларига айланмасликлари, фирибгарлар тўрига тушиб қолмаслиги учун амалга ошираётган ташвиқотларимиз ўз самарасини беради деган умиддамиз.

**Маҳлиё ХОЛОВА,**
**ўз мухбиримиз.**
*Навоий вилояти.*

*Веселая пора*

# СОДЕРЖАТЕЛЬНО ПРОВОДЯТ ЛЕТО

**Дети не зря ждут лета. Проведение каникул в живописнейших уголках природы, участие в познавательных мероприятиях, экскурсиях и походах доставляет им огромную радость.**





Детский оздоровительный лагерь «Порлоқ келажак» расположен в Вабкентском районе Бухарской области. Чтобы ничто не омрачило отдых мальчишек и девчонок, их безопасность обеспечивают сотрудники органов правопорядка.

– Сюда приезжают ребята со всех районов области. В нынешнем году в течение четырех смен лагерь посетят 600 детей, – говорит инспектор профилактики ОПП РОВД лейтенант Юсуф Насуллаев. – Сейчас здесь проходит вторая смена.

Чистый воздух, сбалансированное питание, соблюдение режима дня служат укреплению здоровья ребятишек. В их распоряжении бассейны, спортивные комплексы, библиотека, площадки для проведения культурно-просветительских мероприятий. С огромным интересом они посещают кружки «Хочу освоить компьютер», «Юный журналист», «Книга – мой друг», «Умелые руки», «Happy English» и др. В лагере функционируют секции по различным видам спорта. Регулярно проводятся конкурсы, викторины, соревнования, названия которых говорят сами за себя – «Мы – сторонники здорового образа жизни», «Все профессии важны», «Юные спасатели», «Мой любимый литературный герой», «Кто самый ловкий?», «Путешествие в мир сказок». Словом, дети проводят время в лагере содержательно и с пользой.

**Саодат ГАНИЕВА.**



*Служба профилактики*

# «ОПЫТ ПРИХОДИТ СО ВРЕМЕНЕМ»,

## – говорит начальник ОПП Ходжаабадского РОВД капитан Элёрбек Мавлонов.

**Ходжаабадский район на протяжении 42 километров граничит с Кыргызской Республикой. Махалли Ипак йули, Янги Фаргона, Турaобод, Ордай, Кувват Мурод, Дилкушод, Тошота находятся в приграничной зоне.**

– Инспекторы профилактики обеспечивают стабильный порядок в районе, где проживает более 107 тысяч человек, – рассказывает капитан Э. Мавлонов. – На каждом участке осуществляется целенаправленная деятельность для того, чтобы жители чувствовали себя в безопасности.

Один из лучших инспекторов профилактики – старший лейтенант Арслонбек Исаков. Выпускник Кокандского педагогического института А. Исаков в профессии пошел по стопам отца – Кулдашбая ака, который много лет прослужил в органах внутренних дел и вышел на заслуженный отдых в звании майора.

Население вверенной старшему лейтенанту А. Исакову махалли имени Алишера Навои составляет более 3 тысяч человек. За последние два года здесь не допущено совершения ни одного преступления.

– Основная часть жителей трудится на совместных предприятиях по производству трикотажных изделий, – отмечает инспектор. – Большую роль в поддержании правопорядка играют камеры наружного видеонаблюдения, которых на участке 35.



Больше половины населения составляет молодежь, работе с которой уделяем особое внимание. Организовываем встречи с деятелями культуры. Во взаимодействии с медицинскими работниками пропагандируем здоровый образ жизни, предупреждаем о тлетворном влиянии алкоголя, наркотиков. Проводим профилактические беседы с участием работников правоохранительных структур, в ходе которых предостерегаем молодежь о деструктивном влиянии экстремистских течений. Люди старшего поколения рассказывают о возрождении народных традиций. Тесно сотрудничаем с активистами махаллинского схода граждан.

С раннего утра и до позднего вечера инспектор на участке. Он ведет прием граждан, совершает обход территории, беседует с аксакалами, ведет работу среди несовершеннолетних... У старшего лейтенанта Арслонбека Исакова расписана каждая минута.

Ряды стражей порядка пополняют молодые люди. Они образованные, физически подготовленные, у них есть большое желание служить Родине, честно выполнять профессиональный долг – стоять на страже безопасности граждан.

**Борис КЛЕЙМАН,**
**соб. корр.**

**На снимке:** *начальник ОПП Ходжаабадского РОВД капитан Э. Мавлонов со старшим лейтенантом А. Исаковым.*

*Андижанская область.*

*Salomatlik saboqlari*

# YOZDA BOSHINGIZ OG‘RISA...

**Oramizda bosh og‘rig‘i nima ekanini bilmaydigan odam bo‘lmasa kerak. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, dunyoning 90 foiz aholisi bir marta bo‘lsa-da, bosh og‘rig‘i bilan to‘qnash kelgan. Yonida doim og‘riq qoldiruvchi dori olib yuradiganlar safi kengayib borayotgani, uydagi dori qutida bosh og‘rig‘ini qoldiruvchi vositalarning kamida ikki turi zaxirada turishi ham statistikani tasdiqlaydi.**

Bosh og‘rig‘ini keltirib chiqaruvchi sabablar ko‘p. Kasallikning asosiy sabablari sifatida ruhiy zo‘riqish, uyqusizlik, charchoq holatlari tilga olinadi. Buni qarangki, bosh og‘rig‘i faslga qarab, o‘zgarib turishi ham mumkin ekan.



### ORGANIZMNING SUVSIZLANISHI

Jazirama yoz kunlarida bosh og‘rishining asosiy sabablaridan biri organizmning suvsizlanishidir. Suyuqlik yetishmasligi sababli, miyada qon aylanishi yomonlashadi. Katta yoshdagi odam tanasining 70 foizini suv tashkil qiladi, miya hujayralarining esa 90 foizi suvdan iborat. Shu sababli issiq havoda tanamiz normal ishlashi uchun yetarli miqdorda suv ichish muhim. Yetarli miqdor deganda, sog‘lom odam 2–2.5 litr toza suv ichishini tushunish kerak. Biroz charchoq va bosh og‘rig‘i boshlanayotganini sezsangiz, darhol 2–3 piyola toza suv iching.

### KISLOROD YETISHMASLIGI

Issiq havoda kislorod kam bo‘ladi, uning yetishmasligi esa bosh og‘rig‘ini paydo qiladi. Bu faqatgina ko‘chadagi issiq harorat bilan bog‘liq emas. Masalan, xona ichida konditsionerni yoqib, havo o‘tkazmaydigan plastik eshik-derazalarni zich yopib, bir necha soat o‘tirsangiz yoki tuni bilan uxlasangiz ham, sizni charchoq, lanjlik va bosh og‘rig‘i yenga boshlaydi. Chunki xonada kisloroddan ko‘ra karbonat angidrid miqdori oshib, nafas olinganda, qon bilan miyaga ham yetib borgan bo‘ladi. Shu bois xonani tez-tez shamollatib turish tavsiya qilinadi.

### MIKROELEMENTLAR TANQISLIGI

Yozda organizm kaliy va magniyga ko‘proq ehtiyoj sezadi. Chunki issiq haroratda odam ko‘p terlaydi va ter bilan kaliy, magniy mikroelementlari ham chiqib ketadi. Natijada bosh og‘rig‘i, bosh aylanishi ko‘proq kuzatiladi. Mikroelementlar tanqisligining oldini olish uchun meva va sabzavotlar, ayniqsa, pomidor, karam, ko‘katlar va lavlagidan ko‘proq iste’mol qilish zarur.



### ISSIQ-SOVUQDAN SAQLANING

Issiq-sovuq ham organizm uchun stress va bosh og‘rig‘ini paydo qiladi. Masalan, ko‘chada 35–38 daraja issiqda yurib kelib, birdan harorati 20 daraja bo‘lgan xonaga kirdingiz. Birinchi taassurot, albatta, yoqimli: qizib turgan tana birdan yayraydi. Lekin organizm haroratning bunday tez o‘zgarishiga moslashishi qiyin. Ayniqsa, bolalar va qariyalarda bu yaqqol seziladi. Bosh aylanishi, bosh og‘rishi va hatto hushdan ketishgacha borishi mumkin. Eng yaxshi yechim – haroratning keskin farq qilmasligi (5–6 gradusdan oshmasligi) va yoki bosqichma-bosqich moslashish.

### MAGNIT BO‘RONLARI

Issiq kunlarda magnit bo‘ronlari kuzatilsa, odamlar o‘zini lohas sezishi, uyqu buzilishini va bosh og‘rig‘ini his qilishlari mumkin. Surunkali kasalliklarga chalingan odamlarda xuruj kuzatilishi ehtimoli bor. Magnit bo‘ronlari keksalar, surunkali kasalliklarga chalinganlar va kichik yoshli bolalarga eng ko‘p ta’sir qiladi. Shu bois bunday kunlarda yaxshi uxlash, to‘g‘ri ovqatlanish, toza havodan ko‘proq nafas olish va yetarli miqdorda suv ichish tavsiya qilinadi.

**Muzaffar HASANOV,**
**IIV Markaziy poliklinikasi terapiya bo‘linmasi boshlig‘i – shifokor, kapitan.**

# ХОЛОДНЫЕ БЛЮДА В ЖАРКУЮ ПОГОДУ

**В жаркий день даже суп хочется есть холодным. Предлагаем вашему вниманию меню из холодных блюд, которые идеально подойдут для трапезы в летние дни.**

### ГУЖА

Для приготовления этого супа можно использовать различные злаки – пшеницу, несколько видов кукурузы, перловку и даже рис.

Мелкую белую кукурузу промыть и замочить в холодной воде на 3–4 часа.



Отварить ее в течение 1 часа.

Если вы используете обычную кукурузу или пшеницу, то варить ее необходимо 4 часа до готовности.

Готовую крупу остудить.

Сузьму или кефир развести водой, посолить, поперчить по вкусу.

Залить крупу получившейся смесью, добавить мелко нарезанный базилик и укроп, перемешать.

Суп охладить в холодильнике, после чего подавать к столу.

Хранится он в условиях холодильника не более суток.

### ОКРОШКА НА КЕФИРЕ

Очищенные отварные картофель и яйца, мясо нарезать кубиками.

В глубокую миску отправить нарезанные огурцы, зеленый лук и укроп.



Посолить и аккуратно помять толкушкой, чтобы укроп и огурцы отдали немного сока, так вкус окрошки будет насыщеннее.

Добавить все остальные ингредиенты и залить кефиром. Перемешать, посолить, добавить душистого перца. Густоту супа отрегулировать с помощью минеральной воды.

Перед подачей окрошку необходимо охладить в течение 30–40 минут.

### КУК-СИ

Готовим мясо. Нарезать мясо тонкой соломкой поперек волокон, две луковицы – полукольцами, болгарский перец – кубиками.

Мясо обжарить в сковороде с растительным маслом до золотистой корочки на большом огне. Затем убавить огонь до среднего, добавить лук.

Обжарить лук до прозрачности. Затем добавить болгарский перец и обжарить еще 4-5 минут.

Готовим перцовую пасту: выливаем в сковороду растительное и кунжутное масло. Затем доводим до кипения. Постепенно добавляем в масло паприку.



Тщательно перемешиваем смесь до однородной пастообразной массы.

Добавляем в воду соль, сахар, чеснок, огурцы, помидоры, укроп, уксус и соевый соус. Все тщательно перемешиваем.

Капусту нашинковать. Переложить в большую чашку, посолить. Заправить капусту жареным луком с паприкой, черным перцем, солью, свежей кинзой, измельченным чесноком (2–3 зубчика), добавить 4–5 капель уксуса.

Подача: Отвариваем рисовую лапшу. Яйцо взбиваем и жарим на растительном масле в виде омлета. Затем сворачиваем его в рулет и режем на полоски.

Лапшу, капусту, омлет, говядину складываем в суповую миску и заливаем водой для кук-си.

Посыпаем суп кунжутом и украшаем листьями кинзы. Подаем с перцовой пастой в соуснике.

**Перед употреблением посоветуйтесь с медицинским специалистом.**

*Маршруты духовности*



# Богистон – волшебный сад Шейха Умара Вали

**Посетители горных курортов, опоясывающих берега Чарвакского водохранилища на севере Ташкентской области, обращают внимание, что названия многих мест здесь несут на себе отпечаток духовной истории.**



**Кайрак – один из артефактов комплекса.**

По рассказам жителей кишлака Богистон, в эти места, обжитые людьми с незапамятных времен, из далекой Аравии некогда прибыли двадцать духовных лиц под руководством Шейха Умара Вали.

Археологические исследования, проведенные в окрестностях селения, выявили массу находок, начиная от каменных орудий до предметов из металла, камня и стекла. Мощность и богатство культурного слоя в шестнадцать метров позволили ученым сделать предположения, что история Богистона, Наная, Сиджака, Бурчмуллы и Юсупхани может быть такой же древней и интересной, как и история древнейших городов Узбекистана.

Главная святыня Богистона и всего Чарвака – мавзолей Шейха Умара Вали расположен в густом фруктовом саду у дороги на Бурчмуллу. Сад, согласно преданию, посадил сам Шейх Умар. Сегодня здесь сохранилась огромная орешина, в дупло которой может войти взрослый человек. В начале весны, когда на равнине уже цветет урюк и миндаль, на горных склонах вокруг Чарвака еще лежит снег, но в волшебном саду Шейха уже цветут сотни подснежников.

Сам мавзолей представляет собой достаточно позднюю постройку XVII-XIX вв., отреставрированную и покрытую новой крышей несколько лет назад.

Паломники обязательно хотят увидеть кайрак – длинный камень причудливой формы, отполированный миллионами прикосновений, на поверхности которого выбита надпись из семи строк и дата – 1189 год. Говорят, что дотрагиваться до камня следует лишь с благими намерениями в сердце.

**Рафик ЕНИКЕЕВ.**



# ГОРОСКОП НА НЕДЕЛЮ

## (с 17 по 23 июля)

**Овен.** Для Овнов эта неделя будет благоприятной в финансовом плане. В работе проявите свою стабильность и ответственность. В личных отношениях уделите внимание своему партнеру и проявите заботу. Старайтесь находить общие интересы и проводить время вместе.

**Телец.** Стоит обратить внимание на свою оригинальность и инновационность. Будьте готовы к новым идеям и экспериментам. В работе проявите креативность. В личных отношениях проявите открытость и свободу. Будьте готовы к неожиданным переменам.

**Близнецы.** Готовьтесь к творческому вдохновению. Важно выделиться из толпы и показать свою уникальность. Не бойтесь быть ярким и искренним. Это также время для новых начинаний и проектов, которые отражают вашу индивидуальность.

**Рак.** Ракам стоит проявить гибкость и адаптивность. Вам предстоит общаться с разными людьми и находить компромиссы. Внимательней отнеситесь к деталям и проявляйте дипломатию. В деловой сфере уделите время для планирования и организации.

**Лев.** Проявите свою оптимистичность и приключенческий дух. Предстоит позитивное время, полное новых возможностей и приятных событий. Стоит расширять свои горизонты и искать новые проекты. А также жизни откройтесь новым знакомствам.

**Дева.** Девам будет необходимо проявить свою оригинальность при воплощении идей и новаторских подходов. В деловой сфере будьте готовы к экспериментам. В личной жизни стоит проявлять больше открытости.

**Весы.** Весам надо обратить внимание на душевное состояние и интуицию. Слушайте свои чувства и доверяйте внутренней мудрости. В деловой сфере проявляйте творческий подход и гибкость, в личной жизни – понимание.

**Скорпион.** Скорпионам следует обратить внимание на свое здоровье и благополучие. Поддерживайте баланс между работой и отдыхом, уделяйте внимание эмоциям.

**Стрелец.** Старайтесь сохранять баланс между работой и личной жизнью. Отдавайте приоритет важным делам, но не забывайте о своем здоровье и отношениях с близкими людьми. Найдите время для отдыха на лоне природы.

**Козерог.** В этот период времени важно найти баланс между работой и отдыхом. Не забывайте об отдыхе, чтобы поддерживать свою энергию. Создайте гармоничный график, который позволит вам достичь успеха в разных сферах жизни.

**Водолей.** Важно уделить внимание физическому здоровью и благополучию. Занимайтесь упражнениями, правильно питайтесь и уделяйте время для отдыха. Выезжайте за город с близкими и друзьями.

**Рыбы.** В эти дни важно обратить внимание на финансы и управление ресурсами. Будьте осмотрительными в данных вопросах, стремитесь к экономической стабильности. Планируйте свои действия, стремитесь к достижению целей.

«Biz sog'lom turmush tarzi tarafdorimiz!»

# «YOSHLIK»DAGI QUVNOQ BOLALAR

**Bog'ot tumanidagi «Yoshlik» bolalar oromgohida o'g'il-qizlarning dam olishi va ko'ngilli hordiq chiqarishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Bu yerda futbol, voleybol, stol tennisi, shaxmat-shashka, rassomlik, tikuvchilik va to'quvchilik kabi o'ndan ziyod turli to'garaklar muntazam faoliyat ko'rsatmoqda.**

Oromgohda o'tkazilayotgan «Giyohvandlik – asr vabosi», «Biz jinoyatchilikka qarshimiz», «Odam savdosi – og'ir jinoyat», «Yo'l harakati qoidalariga rioya eting!», «Olov – tilsiz yov!» kabi ko'plab tadbirlar yoshlarni jamiyatimizga yot bo'lgan turli g'oya va illatlardan himoya qilishda hamda ularning jinoyat ko'chasiga kirib qolishining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.



Yaqinda mazkur oromgohda tuman IIB tashabbusi bilan «Biz sog'lom turmush tarzi tarafdorimiz!» shiori ostida sport musobaqasi hamda intellektual bellashuv bo'lib o'tdi. Tadbirlarda har bir o'g'il-qiz o'z bilim va mahoratini namoyish etib, g'olib bo'lishga intilishdi. Qizg'in va murosasiz bahslarga boy bo'lgan ushbu tadbir bolajonlarda unutilmas taassurotlar qoldirdi.

**O'z muxbirimiz.**

*Xorazm viloyati.*







# «MUSHTUM»I ZO'R HUSANBO'RI AKA



**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan soha xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmoniga muvofiq tahririyatimizning doimiy ijodiy hamkori, ko'plab karikaturalari bilan obunachilarimizning yuziga tabassum ulashib kelayotgan «Mushtum» jurnali bosh rassomi Husanbo'ri SODIQOV «Do'stlik» ordeni bilan mukofotlandi.**

**Hamkasbimizni yuksak e'tirof bilan jamoamiz va barcha kulgisevar o'quvchilarimiz nomidan tabriklab, kelgusidagi ijodiy faoliyatida muvaffaqiyat tilaymiz.**

**IIV Birlashgan tahririyati.**












Postda На посту

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –
polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –
mayor Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –
Jahongir SHAROFBOYEV
Erkin SATTOROV

Navbatchilar –
Sarvar SOBIROV
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –
Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:
71-231-33-88;
Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo'yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355

Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.
Bank kodi 00014.
O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g'aznachiligi.
Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'lyozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.
Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili:
Alisher Navoiy ko'chasi 30-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Buyurtma №V-5536.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma taboq. 50078 nusxada chop etildi.
**Obuna raqamlari:**
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:
100070, Toshkent shahri, Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.